

**USTOZ IBRATI –  
SHOGIRD MUVAFFAQIYATI**




9

**TADBIRKOR-U  
ISHBILARMONLAR YURTI**



15

Bolangiz **NIMA**  
o'ynayapti?



16



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

# Postda На посты

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

28-mart

payshanba

№ 13 (4655)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## VATAN MAHALLADAN BOSHLANADI



Davlatimiz rahbarining 2024-yil 21-martdagи «Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga binoan, Dehqonobod tumani IIB «Beshbuloq» mahalla fuqarolar yig'ini profilaktika katta inspektor, podpolkovnik Husan Abrahmatov «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

Bu yilgi bahor Sayxunobod tumanidagi «Ittifoq» mahallasi ahli uchun o'zgacha keldi. Mahallaga mamlakat Prezidenti tashrif buyurib, boshqalar qatorida, mahalla profilaktika inspektori, katta leytenant Jasur Sayfullayev zimmasiga ham mas'uliyatli vazifalar yuklatildi. Mahalla yettiligining yetakchi kuchlaridan biri sifatida nafaqat jinoyatchilikni jilovlash, balki aholining farovon hayot kechirishi uchun ham mas'ul ekani ta'kidlandi.

2

## QASHQADARYO VILOYATI

# VATAN MAHALLADAN BOSHLANADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Dehqonobodda tug'ilgan, tog'liklarga xos baqvvat va chayir bo'lib ulg'aygan Husan tumandagi 77-maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq darsdan bo'sh vaqtlarida milliy kurash bilan shug'ullandi. Qishloq to'ylarida kurash tushib chiniqdi. Xullas, otasi, hozirda iste'fodagi podpolkovnik Qulmat Abrahmatovning nasihatni bilan kelgusida ichki ishlar organi xodimi bo'lish ishtiyogi bilan ulg'aydi.

Intilganga tole yor, deganlaridek, lavhamiz qahramoni o'rta maktabni bitirib, 1996-yilda IIV Akademiyasiga hujjat topshirdi. Sinov va imtihonlaridan muvaffaqiyatlari o'tib, kursantlar safidan joy oldi.

Ilk xizmat faoliyatini 2000-yilda Dehqonobod tumani IIB HPB profilaktika inspektorisi sifatida boshlagan Husan Abrahmatov xizmat faoliyati davomida ustozlari, ayni paytda iste'fodagi podpolkovniklar Rahmatilla To'layev, Xurram Choriyevlardan oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini amaliyatda qo'llash sirlarini o'rgandi. O'z ustida ishlab, kasbiy mahorati, tajriba va malakasini oshirdi.

Podpolkovnik H. Abrahmatov xizmatning keyingi yillarda Dehqon-



obod tumani IIB EKB katta eksperti, qator tuman IIBlari tergov bo'linmalarida tergovchi lavozimlarida ishlab, jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid tajriba va malakasini yanada boyitdi. O'z ustida tinimsiz ishlashi, tirishqoqligi bilan hamkasbleri e'tiborini qozondi.

– Husan Abrahmatov hozir turmanimizdagi 2-sonli huquq-tartibot maskani profilaktika katta inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatib, orttigan boy amaliy, kasbiy tajribasini yosh kadrlarga o'rgatib kelmoqda, – deydi Dehqonobod tumani IIB

boshlig'i o'rinnbosari, podpolkovnik Husniddin Ashurov. – Bugungi kunda profilaktika inspektorlari – kapitanlar Hasan Qurbonov va Botirali Mallayev, katta leytenant Ilyos Omonov o'g'li uni ustoz sifatida qadrlashadi.

Lavhamiz qahramoni turmush o'rtog'i Dilnoza Begimqulova bilan 3 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Farzandlari ham kelgusida otasi kabi ichki ishlar organi xodimi bo'lish orzusida.

– Profilaktika xizmati xodimdan har qanday holatda shaylik va jaso-

rat, yuqori darajadagi professionallik, bilim va malakanli talab qiladi, – deydi podpolkovnik Husan Abrahmatov. – Ichki ishlar organlaridagi kamtarona xizmatlarim, mahallada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish ishlariga qo'shgan kamtarona hissam uchun yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Bunda men bilan yelkama-yelka xizmat qilayotgan hamkasblarimning ham munosib hissasi bor.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

## SIRDARYO VILOYATI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Olti ming olti yuzdan ortiq aholiga ega mahalladagi kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash mas'uliyatidan cho'chimay ish boshlagan yosh leytenantni mahalla faollari hayrixohlik bilan kutib olishdi. Sayxunning bu hududi ikki yil oldin «qizil» toifaga kiritilgandi. Jasur ishni odamlarni, ijtimoiy vaziyatni, kriminogen muhitni o'rganishdan boshlarkan, mahalla xatlovida faol qatnashdi. Natijada odamlarning tirkchiligi nimadan ekanini, jinoyatga

sabab bo'lувчи omillar qayerdan kelib chiqayotganini tezda aniqlab oldi. Shunga ko'ra, eng avval aholi va xonadonlarni turli toifalarga ajratdi. Og'ir ijtimoiy vaziyatdagi 145 ta xonadonni aniqlab, ular bilan alohida ishlashga o'tdi. Mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi bilan hamkorlikda ushbu xonadonlardagi muammolarni bartaraf etishga bel bog'ladı. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalash evaziga asta-sekin ko'pgina oilalarda mo'jazgina issiqxonalar paydo bo'ldi.

Mahalla faxriysi 74 yoshli Risolat G'ulomova farzandlari bilan chorvachilik, quyonchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Mehnati, daromadi evaziga farzandlarini uyli-joyli qilgan. Profilaktika inspektori uning huzuriga hududda istiqomat qiladigan, endigina tadbirkorlikni o'rganayotgan, ijtimoiy muammolari bo'lgan shaxslarni yetaklab keladi. Ularga ushbu oilani namuna qilib ko'rsatdi. Ayrimlarini Risolat ayaga shogird sifatida biriktiradi.

- – Xonadonimizga Yurtboshimizning tashrif buyurgani
- biz uchun unutilmas voqeа
- bo'ldi, – deydi Risolat aya.
- – Ikki o'g'lim bilan qilgan
- mehnatimiz samarasи davlat rahbari nazariga tushganidan quvondim. U kishi erinmay issiqxonamiz, chorvachilik va quyonchilik borasida qilayotgan ishlarimiz bilan tanishgani meni hayratga soldi.

Darhaqiqat, mahallada olib borilgan ishlar samara bermay qolmadidi. Kechagina yetishmovchilikdan azyat chekkan oilalar oyoqqa turganida yosh leytenant ham xonodon sohiblari kabi xursand bo'ldi. Bu mahalladagi kriminogen vaziyat yaxshilanishiga ham ijobjiy ta'sir

etdi. 2023-yilda jinoyatchilik sezilarli ravishda kamaydi. Mahalla «yashil hudud»ga o'tdi.

Hozirgi paytda ham mahallada jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi ishlar bo'shashtirilgani yo'q. Katta leytenant Jasur Sayfullayev tashabbusi bilan mahalla yoshlari o'rtasida sport musobaqalarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilaydi. Bu yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda qo'l kelayotir. Profilaktika inspektorining namunali faoliyati e'tiborga olinib, yaqinda unga muddatidan oldin katta leytenant unvon berildi.

— Bizning zimmamizga yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash, insonlar xotirjamligini ta'minlashdek murakkab, ayni vaqtida sharafli vazifa yuklatilgan. Buning uchun bor bilim va salohiyatimizni ishga solishimiz lozim, — deydi katta leytenant Jasur Sayfullayev. — Xizmatlarim e'tirof etilib, muddatidan oldin unvon berilishi menga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun Ichki ishlar vaziri hamda rahbariyatimizga minnatdorlik bildiraman.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.



TO'YXAT O'RNIÐA

# ILM ULUG'LAGAN INSON

Dono xalqimiz ilm-fan bilan shug'ullanishni bejiz igna bilan quduq qazishga o'xshatishmaydi. Chunki bu faoliyat o'ta mashaqqatli bo'lib, tinimsiz mehnat qilishni taqozo etadi. Ana shunday insonlar sirasiga, 21 tilda chop etilgan 900 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, 600 dan ziyod ilmiy anjumanlar qatnashchisi, falsafa fanlari doktori, professor, ko'plab dunyo mamlakatlarini kezgan jahongashta olim O'zFA Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi, iste'fodagi polkovnik Baxtiyor Karimovni ham kiritish mumkin.



U 1949-yil 30-martda Qoraqlopg'iston Respublikasining Beruniy shahrida maorif fidoyilar — Rahmon berdi Karimov hamda Rahima Alimovalar oilasida tug'ilgan. Ziyoli oilada o'sgan, bolaligidan ilmga chanqoq bo'lgan qahramonimiz Toshkent shahridagi 42-sonli o'rta maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq, o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygandi.

Ta'lif dargohini kumush medal bilan tugatgach, Toshkent davlat universitetining fizika fakultetini imtijozi diplom bilan tamomlaydi. Moskva davlat universitetining Dubna shahridagi yadro fizikasi fakultetida diplomoldi amaliyotini o'tarkan, uning ko'nglida yangi

maqsadlar paydo bo'ladi. 1971–1974-yillarda O'zFA Yadro fizikasi instituti aspiranti bo'lgan lavhamiz qahramoni 1975–1980-yillarda Yekaterinburg shahridagi Ural universitetining falsafa fakultetida sirtdan o'qigan.

Mehnat faoliyatini O'zFA Yadro fizikasi instituti kichik ilmiy xodimi sifatida boshlagan Baxtiyor Karimov ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, bo'lim boshlig'i lavozimlarda ishladi. 1994–1996-yillarda O'zFA Ilmiy o'quv markazining direktor o'rnbosari lavozimida ishlagan B. Karimov 1996–2001-yillarda IIV Akademiyasining falsafa kafedrasini mudiri, ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i, O'zbekistonda demokratik jamiyat qu-rish nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri sifatida faoliyat yuritdi. Ibratli ishlari hamda izlanishdan to'xtamasligi bilan ko'pchilikka namuna bo'la olgan taniqli olim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i ham bo'lgan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakat-

lar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasidagi mas'uliyatlari vazifalarda unga ishonch bildirilgan.

**B. Karimov hamon ilm olishdan to'xtamaydi. U 2020-yilda O'zbekiston milliy universitetining xorijiy filologiya fakultetini muvafqaqiyatli tugatgan. 2022-yilda Moskva xalqaro akademiyasi tilshunoslik va pedagogika fakulteti magistraturasini bitirib, 2023-yilda Moskvadagi Sinerjiya universitetiga «Sun'iy intellekt» ixtisosligi bo'yicha o'qishga kirdi. Ushbu misollarning o'ziyoq biz hikoya qilayotgan insonning qanchalar ilmga oshnoligini ko'rsatadi.**

«Dadajonimiz juda talabchan. Yosh avlodga har tomonlama namuna qilib ko'rsatsak arziyi. Qo'llariidan haligacha kitob tushmaydi. Bir so'z bilan aytganda, oilaparvar, mehribon inson va haqiqiy ilm fidoyisi. Bizni, nevaralarini ziyo olishdan to'xtamaslikka mutanta-

zam chorlab keladi!» – deydi bir necha yil ichki ishlar organlarida erkin yollangan xodim sifatida ishlagan kelini Shahnoza Karimova.

B.Karimov jamiyatimizga ko'plab malakali shogirdlar yetkazib berdi. Farzandlari ham otasiga munosib bo'lish niyatida faqat oldindaga intilgan.

U turmush o'rtog'i Muxtabar aya bilan to'rt o'g'il, bir qizni voyaga yetkazgan. Uchinchi o'g'li Oybek Karimov ichki ishlar organlarida xizmat qilib, Uchtepa tumani IIB boshlig'i o'rnbosari lavozimidan podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqqan. Hozirda tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. Qizi Umidaxon ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'lsa, qolgan farzandlari tadbirkorlik yo'nalishidan ketishgan.

O'n yetti nevara, ikki nafar evaraning bobojonisi, mo'tabar 75 yoshni qarshilash arafasida turgan taniqli o'zbek olimi Baxtiyor Karimov hozirda O'zFA Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi sifatida faoliyatini davom ettirmoqda.

Ha, ilmnинг fazilati buyuk bo'lib, inson hayotida juda ahamiyatlidir. «Ilm insonni ulug'laydi!» degan naql bejiz aytilmaganligiga Baxtiyor Karimov singari yetuk olimlarimizning ibratli hayoti dalil bo'lsa, ajab emas.

**Abror POYONOV,  
o'z muxbirimiz.**

**Olim nafaqat yurtimizda,  
balki xalqaro miqyosda  
ham e'tirof etilgan:**

► BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi huzuridagi konsultativ maqomga ega Xalqaro informatsiya akademiyasining akademigi (2000).

► Amerika biografik instituting konsulantlari kengashi a'zosi (2002).

► Xalqaro biografik markaz (Kembrij, Angliya) tomonidan «XX asrning 2000 taniqli intellektuallari» kitobiga kiritilgan (2002).

► Qozog'iston Respublikasi Fan va ta'lrim vazirligi tomonidan «Qozog'istonda fan rivojiga hissasi uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan (2008).

► Turon fanlar akademiyasi akademigi (2013).

► «Do'stlik» ordeni sohibi (2017).

► Turkiy davlatlar tashkiloti Turkiy akademiyasining Vilgelm Tomsen nomidagi kumush medali bilan taqdirlangan (2018).

► O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi tomonidan «Mehnat faxriysi» birinchi darajali ko'krak nishoni bilan mukofotlangan (2020).

► Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasini tomonidan «Xalqlar do'stligi» ko'krak nishoni sohibi (2021).

DAVR BILAN HAMOHANG

## MAKTABDA INNOVATION SINF XONASI

Xiva shahridagi 18-sonli umumta'lim maktabida o'quvchilarning yo'l harakati qoidalariga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida Innovatsion sind xonasi tashkil

etildi. Viloyat IIB JXX YHXB hamda viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamkorligida barpo etilgan ushbu sind xonasi eng ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida jihozlandi. Endilikda

o'quvchilar yo'l harakatiga oid amaliyot jarayonlarini ko'cha yoki chorrahالارغا chiqmasdan, bevosita shu yerda o'tirgan holda o'rganish, monitorlar orqali kuzaish imkoniyatiga ega bo'ldi.



– Innovatsion sind xonasi yo'l harakati qoidalariga oid turli adabiyotlar va qo'llanmalar bilan boyitildi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta mutaxassis, katta leytenant Shavkat Bobojonov. – Shuningdek, bu yerda svetofor qurilmalari, tartibga solingan chorraha maketlari, avtoshaharcha, YPX inspektorlari mulyaji, yo'lovchilar, piyodalar, velosipedchilar va yo'l belgilari aks etgan stendlar mayjud. Ushbu zamonaviy innovatsion qurilmalar o'quvchilarning yo'l harakati qoidalariga oid bilimlarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Ayni kunlarda boshqa umumta'lim maktablarida ham bu kabi innovatsion sind xonalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,  
o'z muxbirimiz.**

*Xorazm viloyati.*



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

■ Республика Каракалпакстан

# НАСТАВНИК НЫНЕШНЕГО ПОКОЛЕНИЯ



В текущем году ветеран органов внутренних дел подполковник в отставке Наурызбай Таумуратов встретил свою 93-ю весну. Как явствует из имени, день рождения аксакала пришелся на Навруз.



полтора десятка орденов и медалей.

Будучи в отставке ветеран не сидел сложа руки. На основе изучения архивных материалов ряда районов республики Н. Таумуратов защитил кандидатскую диссертацию, касающуюся деятельности органов внутренних дел. Его перу принадлежат шесть книг, изданных по истории и развитию системы органов внутренних дел Каракалпакстана.

Несколько лет возглавлял Совет ветеранов Министерства внутренних дел Республики Каракалпакстан. Внес большой вклад в создание музея при министерстве, обогащение его экспонатов. Вместе с супругой, Раҳимахон Таумуратовой, вырастили и воспитали десять детей. Трое из них пошли по стопам отца. Майоры в отставке Коныратбай и Рустем служили в ППС и ЭКЦ, а сержант в отставке Ажинияз в изоляторе временного содержания.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.



Министр внутренних дел Республики Каракалпакстан полковник Б. Торебеков, его заместители, советник министра полковник в отставке О. Турдаков, ветераны приняли участие в открытии музея, созданного в его доме.

Биография ветерана тесно связана с деятельностью органов внутренних дел Каракалпакстана. За 34-летнюю деятельность в органах внутренних дел был начальником Кунградского РОВД, возглавлял Тахиаташский РОВД. Вышел на пенсию в 1986 году в звании подполковника. Грудь ветерана украшают

## ❖ Место службы – Каравальные войска

В первом батальоне войсковой части № 7531 Каравальных войск МВД Республики Узбекистан активно проводится работа по повышению безопасности объектов, улучшению боевой подготовки личного состава и совершенствованию навыков оперативного реагирования на нештатные ситуации. Этому способствует передача опыта от контрактников к новобранцам.

Помимо этого, в батальоне проводятся регулярные тренировки и учения, направленные на развитие тактических навыков и координации действий военнослужащих. Организуется систематический анализ прошлых оперативных действий с целью выявления сильных и слабых сторон, что позволяет постоянно улучшать методы работы и стратегии реагирования.

Кроме того, в батальоне уделяется внимание не только военно-технической подготовке, но и формированию высоких морально-этических качеств у каждого военнослужащего. Проводятся занятия по воспитанию патриотизма, дисциплине и ответственности за возложенные обязанности, что способствует формированию кадров, готовых к выполнению служебного долга в любых условиях и ситуациях.

**Абу КЕНЖАЕВ.**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

# YOSHLAR BILAN YUZMA-YUZ

Tanlagan kasbida sadoqat bilan xizmat qilish, ilm olish, yurtga daxilidilik tuyg'usi bilan yashash nafaqat insoniy burch, balki har bir inson kamolotining xayrli xaritasidir.



Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Rahmat Mamatovning yosh xodimlar bilan uchrashuvida ushbu jihatlar asosiy mavzuga aylandi. Shuningdek, boshqarma boshlig'i o'zaro muloqot doirasida yoshlarni xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya qilishga, o'z vazifasini sidqidildan bajarishga beparvo va loqayd bo'imaslikka da'vat etdi.

Bugungi kunda viloyatimizda ichki ishlar organlari tizimida xizmat olib borayotgan 30 yoshgacha bo'lgan yosh xodimlar 19 foizni tashkil etadi. Ularning 27 nafari xotin-qizlardir. Yosh xodimlarning 45 nafari professional sport turlari bilan doimiy ravishda shug'ullanib keladi. Ular o'z yo'naliishlari bo'yicha respublika va xalqaro miqyosidagi sport musobaqalarida munosib natijalarni qo'lga kiritib ulgurishgan. O'tgan yilda 459 nafar yosh xodim turli darajadagi mukofotlar bilan rag'batlantirilib, bir nafari ga rag'batlantirish tariqasida muddatidan oldin «kapitan» maxsus unvoni berildi.

Samimiyl va do'stona ruhda o'tgan muloqotda boshqarma boshlig'i yosh xodimlarga sohada muvaffaqiyatga erishishning «oltin kaliti» harakat va mehnat mujassamligi ekanini ta'kidlarkan, bevosita o'zining hayotiy tajribalaridan gapirib berdi.

– Ilk xizmatimni ushbu hududda boshlaganman,  
– deydi Bulung'ur tumani IIB JXX HPB profilakti-

ka inspektori, leytenant Sanjar Abdullayev. – IIV Akademiyasida o'rgangan nazariy bilimlarimni amaliyotda uyg'unlashtirishimda ustozim mayor Habib Kenjayev yaqindan yordam bermoqda. Bugungi tadbir men singari yosh xodimlar uchun ayni muddao bo'ldi. Sohada uzoq yillar faoliyat yuritgan ustozlarning bosib o'tgan ibratlari xizmat yo'li yoshlarni xatolardan as-raydi. Tinimsiz izlanish, o'z ustida ishlashdan erinmay harakat qilishga chorlaydi.

O'z o'rniда tadbirda yosh xodimlarning yurtimizning tarixiy shaharlari ga oilaviy sayohatlar tashkil etish, jadidlar hayoti va faoliyatiga oid insholar tanlovi, intellektual bellashuvlar o'tkazish, «Zakovat» bilimdonlar bahsini tuman IIBlari xodimlari o'rtaida ham tashkil etish, kitobxonlikni targ'ib qilish borasidagi takliflari boshqarma rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi va nazoratga olindi.

Uchrashuv doirasida tashabbuskor va faol yosh xodimlar boshqarma boshlig'inining esdalik sovg'alari hamda tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

Jahongir SAGDULLAYEV,  
kapitan.

IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Saidkarim Alimov esa xodimlarning ma'naviy salohiyati hamda ona Vatanga, kasbiga bo'lgan mehr-muhabbati va sadoqatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar diqqatga sazovor ekanligi, ayniqsa, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalarni hamkorlikda tayyorlash va amalga oshirish

# KELAJAK KO'ZLANGAN KELISHUV

Hozirgi kunda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'naliishida ichki ishlar organlari tizimida sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borish hamda sohada texnik ishlanmalar va dasturiy ta'minotlarni yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish talab etilayotir.

Shu munosabat bilan IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi «Inno» innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki o'rtaida o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Tadbir awvalida so'z olgan Turin politexnika universitet rektori,

muhim ustuvor vazifalaridan sanalishiga alohida to'xtaldi.

Shuningdek, «Inno» innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki rahbari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori Mansurbek Sulthonov ham o'zaro hamkorlikda robototexnika, elektronika, maxsus-texnik qurilmalar, dasturiy



texnika fanlari doktori Olimjon To'ychiyev mamlakatimiz tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining o'rni beqiyos ekanligi, mazkur imzolangan memorandum ham ayni shu ezgu maqsadga xizmat qilishini, shuningdek, talabalar va xodimlar uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, radioelektronika, uchuvchisiz harakatlana oladigan texnikalar va ularning xavfsizligi, elektron platralarni yig'ish bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish va amaliy o'quv kurslarini tashkil etish ayni muddao ekanligini ta'kidladi.

ta'minot vositalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Bundan tashqari, Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, polkovnik Akmal Jo'rayev va mazkur xizmat bosh mu-taxassis, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, kapitan Hikmatillo Bobojonovlar ushbu hamkorlikning natijalari va istiqbol rejalar bilan birgalikda, boshqarma shaxsiy tarkibining faoliyati, vazifalari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligi to'g'risida yig'ilganlarga batafsil tushunchalar berdi.

Tadbir davomida maxsus operatsiyalarni o'tkazish, portlash xavfi bo'lgan predmetlarni aniqlash, ularni zararsizlantirish va yo'q qilishda qo'llaniladigan maxsus priborlar va texnik vositalar namoyishi hamda tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi va kinologiya xizmati xodimlarining ko'rgazmali chiqishlari barchaning qiziqishiga sabab bo'ldi.

**Mixli SAFAROV,**  
o'z muxbirimiz.

 Ветераны — наша гордость

## НАМЕТАННЫЙ ВЗГЛЯД

**На выбор профессии полковника в отставке Икрома Сарварова повлияла его мать. Тожинисо момо рассказывая ему о деде, Хасане Хамдамове, который еще при царском режиме служил на ответственной должности в учреждении исполнения наказания, настоятельно советовала стать защитником закона.**

Окончив общеобразовательную школу в маалле Уратепалик города Джизака, он направился в Ташкент в надежде поступить в школу милиции. Но опоздал с подачей документов.

В то время столица залечивала раны, нанесенные страшным землетрясением. Всюду кипела стройка. Икром решил вплиться в ряды строителей. Затем был призван на срочную службу в армию. После демобилизации, поступил в школу милиции и закончил ее в 1973 году. Служебную деятельность начал инспектором профилактики в Сырдарынском районе.

В 1974 году Икрома Сарварова направили в его родной город в службу уголовного розыска. Занимал пост начальника отделения уголовного розыска Джизакского РОВД, первого заместителя начальника отдела внутренних дел Дустликского района, начальника Мирзачульского РОВД, начальника штаба областного УВД, заместителя начальника Управления уголовного розыска. За этот период раскрыл сотни преступлений.

...Однажды вместе с коллегами в гражданской одежде он зашел в рабочую столовую. Наметанным взглядом определил,

что четверо за соседним столиком распивали спиртное. Причем один из компаний был сильно напуган. Понаблюдав, заметил, что к нему был приставлен нож.

Сотрудники проследили за подозрительными лицами. Вскоре те сели в машину. Таксистом оказался тот самый человек, которому угрожали расправой. Дав уехать из людного района, стражи порядка под предлогом проверки документов задержали подозреваемых. Как выяснилось, они совершили разбойное нападение и пытались скрыться на попутном такси. Позже было уста-



новлено, что на совести преступников около десяти разбойных нападений, совершенных в разных регионах республики.

В профессиональной биографии Икрома Сарварова много поучительных примеров, полезных для сотрудников уголовного розыска. В отставку

его проводили в торжественной обстановке в 2003 году с поста начальника учреждения исполнения наказания города Джизака. Ветеран принимает активное участие в мероприятиях УВД области и Совета ветеранов.

**Соб. корр.**

Джизакская область.

### ■ Навоийская область

## ВОССОЗДАВАЯ КАРТИНУ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

**Главный эксперт Экспертно-криминалистического центра УВД Навоийской области капитан Рустам Наимов успешно провел более 500 экспертиз, внося весомый вклад в развитие сферы.**

Родился Р. Наимов в 1993 году в Бухарской области. С отличием окончил среднюю школу и профессиональный колледж. Получил образование в Восточно-Сибирском институте Министерства внутренних дел Российской Федерации. В 2019 году начал служебную деятельность в Карманинском районе. Ныне служит в ЭКЦ УВД Навоийской области.

В коллективе его уважают как опытного сотрудника, имеющего допуски к пяти видам экспертиз. Он помогает молодым специалистам советами по



вопросам дактилоскопической идентификации, проверки и установления личности преступников, оформления документации.

— В нашем деле важны мельчайшие детали, поэтому стараюсь быть максимально внимательным, тщательно изучать место происшествия. Хорошо понимаю, что от моего заключения зависит успех дела, — говорит капитан Рустам Наимов.

Постоянная работа над собой, изучение и применение передового опыта, ответственный подход — слагаемые его эффективной работы. Преодолевать трудности профессии помогают и наставления отца, который также служил в органах внутренних дел.

**Соб. корр.**





ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

# ҚАТЫИЯТИ ТОШНИ ЁРАРДИ

Оилавий келишмовчиликлар сабаб отаси ва онаси ажрашиб кетишганда Рамазон ҳали ақлини танимаган бола эди. Кейинроқ онаси бошқа бир одамга турмушга чиқди. Рамазон ана шу инсондан ҳақиқий оталик меҳрини, ғамхўрлигини кўрди. Қаҳрамонимиз муддатли ҳарбий хизматни ўтаб қайтгач, ҳозирги Кармана тумани ИИБда милиционер бўлиб ишлай бошлади. У аксар сафдошлидан камгаплиги, камсуқумлиги билан ажралиб турарди. Лекин қатъияти тошни ёарди.

Узоқ йиллар ички ишлар органларининг турли соҳавий хизматларида фаолият кўрсатган Рамазон ИИВ Олий милиция мактабини битирган. Эришган ютуқлали, одамийлик фазилатлари туфайли ҳамкаслари орасида муносаб обрў-эътибор ортириди, раҳбари ятнинг ишончини қозонди. 1977 йилда Конимех тумани ички ишлар бўлими бошлиғи этиб тайинланган Рамазон Мавлонов афсуски, Т. Гдлян бошчилигидаги «десантчилар» зуғумларидан четда қолмади. Бу ҳақда турмуш ўртоғи Мұҳаббат ая шундай хотирлайди:

— Ўзлари болалиқда ёлғиз бўлғанликлари учун фарзандлари кўп бўлишини хоҳлардилар. Тўқиз фарзандимиздан ҳар қайсисининг бирор хислатини мақташдан чарчамасдилар. Хизмат юзасидан бошқа туманга янги лавозимга тайинланадиган бўлсалар, мактабга борадиган 7 нафар қизимни қайномам ва қайnotам олиб қолишарди. Биз ҳали мактаб ёшига етмаган икки ўғлимиз билан жўнаб кетардик.

Конимех туманида иш бошлаган вақтларида аввалига ҳаммаси яхши эди. 1985 йилда тинчлигимиз бузилди. Ҳар куни эрта туриб, хизматга кетардилар, кечаси алламаҳал қайтардилар. Ёшлигидан қийинчилик кўриб улғайланниклари учунми, унча-мунча ма-

шаққатдан нолимасдилар. Метин иродада соҳиби эдилар. Дастрлаб бошларига тушган ташвишларни мендан яширдилар. Факат бир куни «Агар бугун қайтмасам, болаларни сенга омонат қолдирман», — деб, асоссиз қўйилган айловлар ҳақида гапириб бергандилар. Аммо бу ҳақда ҳеч қажон ҳеч кимга айтмаслигимни тайинлагандилар.

Ўша куни кечгача дуо қилиб кутдим. Ҳайрият, уйга қайтиб келдилар. Аммо юраклари хаста бўлиб бораётганини хис қилардим. Уйқуларида ўқтин-ўқтин оғриқдан ингрардилар, лекин ҳеч қажон терговдаги қийноқ ва руҳий босимлари ҳақида гапирмасдилар.



«подполковник» махсус унвонини олиш учун юқори лавозимлардаги вилоят ИИБ ходимларига пора бергансан, хизмат вазифангга лоқайдлик билан муносабатда бўлгансан», — деб тухмат қилишди. У ана шундай тазииклар, бўхтонлар

ўзига мос вазифада фаолият кўрсатди. Лекин бошидан кечирган тазииклар жиддий асорат қолдирганди. 1989 йил 18 март куни хасталик сабаб оламдан кўз юмди.

— Қизларим Ирода, Шоира, Олимани турмушга узат-

ҳакам экан. Фарзандларим одамлардан отаси ҳақида яхши гаплар эшишиб келишганида, мен ҳам ғурурланиб кетаман,— дейди Мұҳаббат ая.

— Отам очиқўнгил, фоятда одамохун инсон эдилар. Ўша синовли кунларда онамни ҳам терговга жалб этишган, — деб сүхбатимизга кўшилади марҳумнинг қизи Ирода. — Кўпчилик бўлғанимиз учун қайси пулингга болаларингни боқасан, эрингни кирдикорларини ёзиб бер деб мажбурлашган. Онам ишлаган дўкондан камомад топмоқчи ҳам бўлишган. Аммо ниятларига етишолмаган.

Отам жисмонан, бақувват, баланд бўйли инсон эдилар. Тергов жараёнидаги тухмату тазииклар соғлиқларини ёмонлаштириди. Уларнинг бошдан кечирган қийинчиликлари ҳақида кейинроқ хизматдош дўстларидан эшишганмиз. Синовларни сабр билан енгилар, аммо ҳаётдан эрта кетдилар. Укаларим ёш эди, онамга анча қийин бўлган.

Рамазон Мавлоновнинг барча фарзандлари бугунги кунда оиласи, бола-чақали. Катта ўғли Алпомиш Мавлонов Навоий эркин иқтисодий зонасида бош механик бўлиб ишлайди. Кичик ўғли Умиджон Мавлонов эса Навоий ГРЭСда муҳандис. Марҳумнинг невараю эваралари ҳам шундай ҳалол, пок, қатъиятли инсоннинг зурриётлари эканлигидан фахрланиб юришади.

**Махлиё ХОЛОВА,  
ӯз мухбиримиз.  
Навоий вилояти.**



Суратда: Рамазон Мавлоновнинг умр йўлдоши Мұҳаббат ая кичик ўғли Умиджон, неваралари Рўшана ва Салимбек билан.

«Десантчилар» Рамазон Мавлоновга навбатдаги

ичида умрининг икки йилини ўтказди. Руҳий ва жисмоний босимлар қаҳрамонимизнинг иродасини бука олмади, аммо қаддини будди. Рамазон Мавлоновнинг тергов жараёнида бир неча маротаба тоби қочди. Охирни юрак хасталиги билан 1987 йилнинг январида пенсияга чиқди. Шундан кейингина фавзолардан кутилди.

Аввалига 5-6 ой уйда бекор қолди. Аммо эрта кетиб, кечгача хизматда бўлган ходим учун бу азоб эди. Сўнг бир йилдан ортироқ туман Тиббиёт бирлашмасида

гандик. Дилрабо, Дилором, Наргиза, Санобар ҳамда Алпомиш ва Умиджонни ўзим ҳам ота, ҳам она бўлиб вояга етказдим. Ўша пайтда ўғлим Умиджон атиги бўшда, Алпомиш ундан ҳам кичикроқ эди. Ота меҳрига тўймади шўрлик болаларим.

Дўконда сотувчи бўлиб ишлардим. Кейинчалик бозорда савдо билан шуғулландим. Аллоҳга шукр, отаси оламдан ўтганидан кейин 4 қизим ва 2 ўғлимни олий таълим муассасаларида ўқитдим. Вақт ва халқ одил



## ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ



## ИНСОН КАСБИНИ СЕВСА...

**Аёл баҳти, саодати аввало, унинг қўрғони, оиласи тинч бўлишига боғлиқ. Қолаверса, атрофдаги инсонлар уни тушуниб, ҳар қандай қийин паллада қўллаб турса, шунинг ўзи етарли. Истеъфодаги майор Моҳида Абройқулова баҳтни ана шундай тушунчалар билан боғлайди.**

Ички ишлар органлари-даги илк хизмат фаолиятини 1993 йилда бошланган Моҳида Абройқулова 1994–2015 йилларда вилоят ИИБ Молия-ҳисоб бўлими пенсия таъминоти бўлинмаси раҳбари ва-зифасида меҳнат қилди. Ҳисоб-китоб илмини пухта ўрганган лавҳамиз қаҳрамони ўзининг меҳнат-севарлиги, тўғрисўзлиги билан жамоада хурмат қозонди.

– Ҳисоб-китоб ишининг ҳам ўзига яраша мушкулотлари бор, – дейди истеъфодаги майор Моҳида Абройқулова. – Онам Молия-ҳисоб бўлимида ишлагани туфайли мен ҳам шу касбга меҳр қўйдим.

Фаолиятим давомида унинг ёрдамлари менга асқатди. Отам ҳам узок йиллар ички ишлар органлари тизимида хизмат қилган. Улардан инсон ўз танлаган касбига садоқатли бўлиб, уни севсагина, ютуқларга эришиши мумкинлигини ўргандим.

Қаҳрамонимиз 2 нафар ўғлини ҳам ана шундай ақидалар асосида улғайтириди. Улардан бири Отабек бугун банк соҳасида, иккинчиси Азизбек эса адлия тизимида фаолият олиб боряпти.

– Ҳаёт турли синовларга бой. Унда тўғри йўлни топиш учун ёнимизда суюнчиқларимиз бўл-

са, янайам яхши. Шукрки, яқинларим мени ҳар доим тушуниб, қўллаб-қувватлаб келишди. Бунинг учун улардан миннатдорман.

Моҳида Абройқулова бугун ҳам тиниб-тинчимасдан Миллий гвардия вилоят бошқармаси Қўриқлаш бўлимида ҳисобчи бўлиб ишлашда давом этяпти. Доим фойдали меҳнат билан банд инсон учун иш мароқли, севимли машғулотга айланади. Шунга қарамай, қаҳрамонимиз бугун ички ишлар органлари жамоат тадбирларида ҳам анча фаол. Шогирдларининг чинакам ғамхўри, маслаҳатгайи.

Ҳаётда доим бизга ўрнак бўлгувчи, тўғри йўл кўрсатувчи инсонлар ёниб турган чироққа ўхшайди. Улар олдимиздаги йўлларни ёритиб туради.

**Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,  
ӯз мухбири  
Сурхондарё вилояти.**

## КАСБ ФИДОЙИСИ

## ҚАЛБ ҚЎРИ ИЛА

**Самарқанд ҳалқаро аэропортида йўловчилар хавфсизлигини таъминлашда майор Мехроҳ Яҳшибоев кейинги уч йилдан буён самарали хизмат қилади.**

У 2012 йилда Жиззах педагогика институтини тамомлагач, ички ишлар органлари сафига кирди. Дастреб тергов ҳибсонасида назоратчи, кейинчалик Тожикистон билан чегарадош Ургут туманиндағи «Ваткан козбек» маҳалласида профилактика инспектори бўлиб ишлади.

– У ерда катта тажриба тўпладим, – дейди майор М. Яҳшибоев. – 2016 йилда содир бўлган бир воқеани



яхши эслайман. Ўшанда қўйши республиканинг икки фуқароси 28 кг марихуана гиёҳвандлик воситаси билан ҳудудимизга ноқонуний равишда киришга уринган. Биз ҳуқуқни муҳофаза қилиш ор-

ганларининг бошқа бўлинмалари билан биргаликда жиноятчиларни қўлга олишга муваффақ бўлдик.

Лавҳамиз қаҳрамони аэропортда ишлаш чегарадагига қараганда осонроқ эканлигини тан

олади, лекин баъзан йўловчилар тизими алдашга ва ташиш қоидалари билан тақиқланган юкларни олиб ўтишга уринишади. Айрим келишмовчиликлар ва юк ўғирланиши ҳам истисно эмас.

– Йил бошидан буён ҳамкасларимиз билан биргаликда қидирудада бўлган уч нафар шахсни қўлга олдик, – дейди майор М. Яҳшибоев. – Аэропортда қўлга олиш ва низоли ҳоллар тез-тез кузатилади, ота-оналарнинг аризаси бўлса, қизларни рейсдан қолдириш ҳолатлари ҳам учраб туради.


Майор М. Яҳшибоевга бу йил имтиёзли кредит асосида уй-жой берилди ва у оиласи билан бирга янги уйга кўчиб ўтди.

Сирасини айтганда, Мехроҳ Яҳшибоев профилактика инспектори сифатида ҳамкаслари ва аҳоли хурматига сазовор бўлган ибратли оила бошлиғи, ўз ишига бутун қалби билан содик, фидойи инспектор.

**Замира БОЛТАЕВА,  
ӯз мухбири  
Самарқанд вилояти.**

NAMANGAN VILOYATI

## USTOZ IBRATI – SHOGIRD MUVAFFAQIYATI



**Namangan shahar IIOFMB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Gulnoza Hasanova tajribali, jonkuyar xodima. 2006-yildan buyon sohada xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni fidoyiligi, mas'uliyatliligi bilan hamkasbilar orasida hurmat qozongan. Ayniqsa, ko'plab yosh xodimlar uni o'ziga ustoz deb biladi.**

– Amaliyotni o'tashim uchun menga podpolkovnik Gulnoza Hasanova murabbiy etib biriktirildi, – deydi IIV Akademiyasining bitiruvchisi, kursanti Zebiniso No'monova. – Ustozimning awvalroq doim vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, tajribali va talabchan xodima ekani haqida eshitgandim. Ta'lrim muassasasida olgan nazariy bilimlarimizni amaliyotda qo'llash jarayonida bunga yana bir bor amin bo'ldim. Zebiniso opadan, birinchi navbatda, himoya orderi berilayotgan xotin-qizlar bilan muomala qilishni, ularga huquqiy yordam ko'rsatishni o'rgandim. Qisqasi, amaliyot davrim keyingi faoliyatimni o'zimga ishonch bilan boshlashimda katta tajriba maktabini o'taypti.

Yangi Namangan tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Rasila Ibragimova ham Gulnoza Hasanovaning shogirdlaridan. U o'tgan qisqa muddat ichida ustozni ko'r-satmalariga amal qilib, xizmatda yaxshi natijalarga erishib kelmoqda.

Gulnoza nafaqat xizmatda, oilaviy hayotda ham omadi chopgan ayol. Turmush o'rtog'i Ergashali Hasanov bilan 2 nafar farzandni jamiyatga munosib farzand qilib tarbiyalamoqda. O'g'li Muhammadqodir Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi, Mehrimoh esa 5-sinfda tahsil oladi.

– Ichki ishlar organlarida xizmat qilish sabr, mahorat va bilim talab etadi, – deydi podpolkovnik Gulnoza Hasanova. – Sohamizda «Ustoz-shogird» an'anasi yaxshi yo'lda qo'yilgani ko'plab yosh xodimlarga kelgusi xizmatida muhim poydevor vazifasini o'taypti. Bizga ana shunday mas'uliyatli vazifa yuklatilgani kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shdil. Zero, yoshlarni qo'llab-quvvatlash har birimizning burchimiz.

**Suratda:** podpolkovnik Gulnoza Hasanova IIV Akademiyasining kursanti Zebiniso Nu'monova bilan.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Ehtiyyot bo'ling: firibgar!



## HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI KERAKMI...?

So'nggi vaqtarda ommaviy axborot vositalida firibgarlardan ehtiyyot bo'lishga undovchi chaqiriqlarga tez-tez ko'zimiz tushyapti. Shunga qaramay, bunday noxush holatlar yo'l harakati xavfsizligi sohasiga bog'liq yo'nalishlarda ham uchramoqda.

Haydovchilik guvohnomalarini olishda yaratilgan shaffof tizim bo'lajak haydovchilarni yo'l harakati qoidalarini yaxshi o'zlashtirishga undayotgan bo'lsa-da, ayrim shaxslar bu hujjatni olishning «oson» yo'llarini izlab, noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etmoqdalar. Achinarlisi, ko'plab yurdoshlarimiz haydovchilik guvohnomasini ma'lum bir qiymatdagi moddiy boyliklar evaziga olib berishni va'da qilgan firibgarlarga ishonib, jinoyat qurbanlariga aylanib qolayotir.

– Bosh prokuratura huzuridagi departamentning Sirdaryo tumani bo'limi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro go'yoki viloyat IIB YHXBda ishlovchi tanishlari yordamida «B» toifadagi haydovchilik guvohnomasini olib berishi evaziga fuqaroden 700 AQSH dollari va 1,2 million so'mni olgan vaqtida ushlangan, – deydi IIV JXD YHXX Axborot xizmati yetakchi mu-taxassis, podpolkovnik Dilnoza Rajabova. – Mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydag'i «Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan milliy haydovchilik guvohnomasini berish tartibi belgilangan. Mazkur qarorga muvofiq, tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasini olish uchun joylardagi haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi, belgilangan litsenziyaga ega bo'lgan o'quv tashkilotlarida, tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida tegishli toifalar bo'yicha har xil muddatda ta'lim olishingiz, shuningdek, o'quv yakuni bo'yicha berilgan guvohnomaga asosan joylardagi Imtihon markazlarida, bunday markazlar tashkil etilmagan joylarda esa hududi YHXBlarida nazariy va amaliy imtihonlarni topshirib, haydovchilik guvohnomasini olishingiz kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnda aytish lozimki, sizga haydovchilik guvohnomasini pul evaziga noqonuniy yo'llar bilan olib berishni taklif qilayotgan firibgarlardan ehtiyyot bo'ling, ularga aldanib qolmang. Haqiqiy haydovchilik guvohnomasi yo'llarda siz va yaqinlaringiz, qolaversa, o'zgalarning hayoti va sog'lig'i kafolati ekanligini unutmang.

**Sherzod ABDUSAMADOV,**  
o'z muxbirimiz.

# AMIR TEMUR – MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT HOMIysi

## Sohibqiron

**Amir Temur buyuk sarkarda, zakiy davlat arbobi bo'lish bilan birga, zamonasining benazir dahosi, ulkan qobiliyat va iste'dod egasi hamda ilm-fan va madaniyatning homiysi edi.**

**Q**yoshlik chog'laridan oq, sharq tarixi, falsafa, adabiyot va san'at, islam dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta'lomitiga mustahkam e'tiqod bilan qaragan. Shu bilan birga, handasa, falakiyot, mantiq, fiqh, ilohiyot, tarix, jug'rofiya va tibbiyot ilmlarini puxta o'zlashtirgan. Shuningdek, o'z zamonasining rasmiy uch tili, ya'ni, turk, fors va arabchani mukammal bilgan. Sohibqironning shijoatli ruhida ilm va uning ahliga hurmat-u e'zoz kuchli bo'lgan.

**Buyuk bobokalonimizning naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin va u yaratgan ta'lomitga ixlosi baland edi. Shu bois u Xoja Shamsuddin Kulol, Mavlono Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy, Sayyid Amir Kulol va Mir Sayyid Baraka singari ulug' diniy allomalarini o'ziga pir deb bilgan, ularning ma'naviy-ruhiy madadlaridan, ta'lomitlaridan doimo mislsiz kuch-quvvat olib kelgan.**

Amir Temur ulamo va fazillarga izzat-ikrom ko'rsatib, boshqalardan ustun va ulug', deb sanagan. Diniy arboblar, ulamo va shayxlar bilan mazmunli bahslar yuritgan, matabalarini har doim oshirib, sovg'a-salomlar hadya etib kelgan.

Islam dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid'at, mutaassiblik, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil himoya qilgan. Ulug' ajodimiz diniy ilmlar bilan birga, dunyoviy ilmlarni ham puxta o'zlashtirdi. Ilm-fan va madaniyatning u xabardor bo'lmagan bir-on-bir sohasi bo'lmaganligiga uning keng qamrovli, mazmunan nihoyatda chuqur «Temur tuzuklari» ham misol bo'la oladi.

**Eng muhimi, Amir Temur buyukligining zamirida uning ma'naviy sifatlari yotadi. Sohibqiron bobomizning ma'naviy, diniy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari markazida islam ta'lomi, Qur'oni karim, Hadisi sharif, tafsir, fiqh, tasavvuf ilmi va falsafasi turganligi ayni haqiqatdir.**



Shuningdek, u o'z millati madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlarini chuqur bilganligi va astoydil hurmat qilganligi haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, qadimiy Turon va Turkiston xalqlari davlatchiligi masalasida keng bilim va ma'lumotlarga ega sanalgan. Shu sababli ham buyuk vatandoshimiz mislsiz yorqin tarixiy shaxs sifatida o'zini tarbiyalagan, o'ziga ma'naviy oziq bergan, ulkan ishlarga chorlagan el-yurtining ilmiy-falsafiy ta'lomitlariga katta qiziqish bilan qaragan. Sharq donishmandlari hisoblanish Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' mutafakkirlarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'lomitlaridan to'liq xabardorligi bugun hech kimga sir emas.

**Sohibqiron Sharqona an'-analarga sodiq qolib, doimo olimlar, faylasuflar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar, hokimlar, amirlar, vazirlar, mash'hur va taniqli san'at ustalari, turfa kasb egalari bilan kengashib, ularning maslahatlarini olib, ish yuritgan.**

Olim-u fuzalolar, diniy ulamo va allomalar boshini doimo silab turganligi bois, firdavsmonand poy-

taxt Samarqand jahon ilm-fani va madaniyatining gultoji hisoblangan faylasuflar, fiqhshunoslar, tarixchilar, musiqashunoslar, munajjimlar, muhaddislar, mutasavvuflar maskani hisoblangan. Mavlono Abdumalik, Sayyid Sharif Jurjoniy, Hoji Muhammad Zohid Buxoriy, Mavlono Ahmad, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Sa'diddin bin Umar Taftazoniy va boshqa allomalar Amir Temur rahnamoligida unumli ijod qilib, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Mazkur dalillar Amir Temurning dunyoqarashi, din, odob-axloq, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi fikr va mulohazalari asossiz paydo bo'lmaganligidan darak beradi.

Shaxsan Amir Temurning o'zi odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat bobida yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolaridan biri sanaladi. Uning saltanati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi. Ma'naviyat va ma'rifat, din, odob-axloq haqidagi Amir Temur ta'lomitining mohiyatini chuqur va mukammal bilib olish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, pand-nasihat-

larni hamda boshqa olimlarning u haqda yozgan asarlarini ko'zdan kechirish kifoyadir. «Temur tuzuklari», «Amir Temur o'gitlari», «Amir Temur vasiyati», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ibn Arabshohnning «Amir Temur tarixi», Salohiddin Toshkandiynning «Temurnoma», B. Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur», Yevgeniy Berezikovning «Buyuk Temur», Ashraf Ahmedovning sohibqiron tarjimayi holiga oid asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Sohibqironning ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'lomi asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning «Tarjimayi holi»da va «Tuzuklari»da chuqur bayon etilgan. Amir Temuring insonparvarligi, millatsevarligi, ma'naviyat va ma'rifatning jonkuyar homiysi sifatidagi insoniy fazilatlari uning farzandlariga qoldirgan vasiyat so'zlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'lgan.

**Ma'rifat va ma'naviyat homiysi – Amir Temur sofdil kishilar, olim va fazillarga dargohi ochiq bo'lgan, nafsi yomon, ko'ngli buzuq kimsalarni esa o'ziga yaqinlashtirmagan. Har kimning qadr-qimmatini amaliy faoliyati, odob-axloqi, iymon e'tiqodiga qarab o'chagan.**

**Shu tariqa, sohibqiron bobomiz adolat, qadr-qimmat, or-nomus, burch, mas'uliyat, vijdon, iymon-e'tiqod, halollik, fidoyilik singari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida necha-necha avlod-u ajdodlarga dastur va yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladigan ta'lomitlar yaratgan va hayotga shaxsan o'zi joriy etgan.**

Shunday qilib, Amir Temuring ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining har biri mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida o'r'in tutadi. Ularni ulkan xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Shu bois ular xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona xazinadir. Bu ulkan ma'naviyat va ma'rifat bo'stoni buyuk Temurning mamlakatda tinchlik-osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik, mehrshafqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalashda mustahkam poydevor sifatida yaratilgan.

ANONS

## JURNALNI VARAQLAGANDA...

«Qalqon-Щит» jurnalining 2024-yil mart oyi sonida ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda sohada xizmat qilayotgan xodimlar faoliyatiga bag'ishlangan materiallar, shuningdek, badiiy adabiyot va she'riyat namunalaridan bahramand bo'lasiz.

IIV Qorovul qo'shinlari harbiy qismlarida erkaklar bilan bir safda xotin-qizlar ham xizmat faoliyatini olib borishmoqda. «Havas va harakat ortidan» sarlavhal maqolada ko'p yillar mobaynida yigitlar bilan yelkama-yelka xizmat qilayotgan salohiyatlardan birlar III darajali serjant Nargiza Qo'ziboyeva haqida so'z boradi.

O'tgan asrning saksoninchchi yillarda ro'y bergan qatag'on Jizzaxning fidoyi insonlarini ham chetlab o'tmadi. Shundaylardan birlar polkovnik Qaynar Qarshiboyev edi. U boshiga tushgan musibatlarga qaddini tik tutib turdi. Sud zalida ichida kechayotgan tuyg'ularni, yurakdagisi hasratlarini sirtiga chiqarmadi. U adolatning qaror topishiga ishonar-

di. «Qaddi bukilmagan polkovnik» deb nomlangan maqola yaqin tarix sahifalaridagi ana shunday qonli bitiklardan hikoya qiladi.

Yakkasaroy tumani IIOFMB xodimlari hudud tinchligi, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yuzasidan o'zlariga yuklatilgan vazifani ado etish yo'li-



da fidokorona xizmat olib borishmoqda. «Jinoyatning oldini olish – eng muhim masala» nomli maqolada tumandagi uchinchi sektor

faoliyatidan boxabar bo'la-siz.

Farg'ona viloyati IIB rahbariyati hamda Faxriyalar kengashi tomonidan tizimga kirib kelayotgan yosh xodimlarni kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida «Ustoz-shogird» an'anasi sohaga keng tatbiq etilmoqda. Amaliy tajribaga boy faxriylardan 15 nafari Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari ichki ishlar boshqarma va bo'limlaridagi tezkor ko'makla-shish guruhlariga jalb etilgan edi. «Faxriylar tajribasi yoshlari shijoati bilan uyg'unlashganda» sarlavhal maqolada bu haqda batafsil bilib olasiz.

SOHA FIDOYISI

## HAR BIR MUROJAATGA DIQQATLI BO'LISH KERAK – deydi mayor Mansur Komiljonov

Mirobod tumani Qo'yiliq-6 dahasida istiqomat qiluvchi fuqaro P.J. nomidan yozilgan ariza O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali tuman IIOFMBga kelib tushgan. Tashkiliy bo'lim katta inspektori, mayor Mansur Komiljonov uni o'rganib chiqib, tegishliliqi bo'yicha 4-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant F. Jo'rayevga yuborgan.



Murojaatda aytishicha, P.J.ning nomiga qo'shnisi D.R. 3 million so'm kredit va yana muddatli to'lovga televizor olgan. Lekin qo'shni kreditlarni vaqtida to'lamay aldarab yurgan. Profilaktika inspektori holatni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqib, qo'shnilar bilan profilaktik suhbat o'tkazishi natijasida kredit to'lovlarining barchasi to'lab berilgan.

– Murojaat qilgan har bir fuqaro muammosini bildirganida, uni diqqat bilan tinglash lozim bo'la-di, – deydi mayor Mansur Komiljonov. – Muammolari yechim topayotgan insonlar yuzidagi tabassum-

ni ko'rib, odamning ruhi yengil tortadi.

M. Komiljonov Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetini tamomlab, Mirobod tumani IIOFMB HPBda xizmatni boshlagan. U dastlab tumandagi «Banokatiy» mahallasida profilaktika inspektori sifatida faoliyat olib borib, 2021-yilga qadar 4 ta mahallada aholi tinchligi va osoyishtaligi uchun mas'ul bo'lgan.

Mahallalarda xizmat qilish jarayonida tajriba to'plagan, sohaning past-balanchini yaxshi o'rgangan xodim boshqarmaning tashkiliy bo'limida

murojaatlari bilan ishslash yo'naliishida faoliyatini davom ettirmoqda. Uning vazifasi kelib tushayotgan murojaatlarni qabul qilish, tegishliliqi bo'yicha joylariga yuborish, murojaatchilar bilan suhabat o'tkazib, ijro nazoratini amalgalashishdan iborat.

Lavhamiz qahramonining ikki nafar farzandi bor. Turmush o'rtoq'i E'zoza-xon – hamshira. Ikkisi baxt qo'rg'oni bo'lmish oilada farzandlar kamoli yo'lida umrguzaronlik qilib kelmoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.

JINOYAT MUHOKAMASI

## YOMON DO'ST DUSHMANDAN YOMON



Hali qish sovug'i ketib ulgurmagan mahal. Jarqo'rg'on tumanidagi «Qorabura» mahallasida yashovchi Shoberdi Qobulov (ism-sharifi o'zgartirildi) do'sti Hasan Boqiyevning uyiga mehmonga bordi. O'zi bilan birga spirtli ichimlik ham olib, ulfati bilan chaqchaqlashib o'trigisi keldi. Hasan ham uni quyuq kutib oldi va turmush o'rtoq'iga tezda dasturxon tuzashini aytdi.

Ikki do'st rosa ulfatchilik qilgach, yaxshigina mast bo'lishdi. Mastlik rostligini ko'rsatib, Shoberdi Hasanni tanqid qila boshladgi. O'rtada janjal ko'tarildi. Bir-birini haqoratlagach, Shoberdi dasturxonda turgan oshxona pichog'ini mezbonning yelkasi va bilagiga suqib oldi. Hasan og'riqdan ingranib, yiqildi. Bu Shoberdining hushini uchirdi va u shu zahoti hech kimga sezdirmasdan uydan chiqib ketdi.

Rafiqasi chaqirgan «Tez yordam» xodimlari H. Boqiyevni tezda shifoxonaga olib ketishdi. Ammo u anchagini qon yo'qotgani bois muolajalar kor qilmadi. Ichkilik oqibati ana shunday ayanchli yakun topdi.

Mahalla hududida o'tkazilgan jinoyat muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda viloyat IIB boshlig'ining birinchi o'rinosari, podpolkovnik B. Inoqov, Jarqo'rg'on tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik A. Berdinazarov hamda viloyat

prokururasi bo'lim boshlig'i D. Mirzayevlar so'zga chiqib, bu holat bo'yicha o'z fikr-muhohazalarini bildirishdi. Mahalla faollari, keng jamoatchilik vakillari qatnashgan yig'ilishda ichkilikka ruju qo'yan shaxslar taftishdan o'tkazilib, davolanishga muhtojlarini tibbiy muassasalarga joylashtirish, hududda tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar olib borilishi bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Yomon odad insonga pand beradi. Xuddi shunday, ichkilik ham kishiga manfaat, obro' keltirmaydi. Afsuski, mana shu illat tufayli ayrimlar bilib-bilmay katta xatoga yo'l qo'yishi mumkinligini yuqorida holatdan ham ko'rishimiz mumkin. Shu bois yomon illatlardan xalos bo'lishi lozim.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Surxondaryo viloyati.



 Урок духовности и просвещения

# АМИР ТЕМУР – ПОКРОВИТЕЛЬ ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Амир Темур родился 9 апреля 1336 года в селении Хужа Илгор, близ города Кеша (ныне Шахрисабз). Его отец, эмир Мухаммад Тарагай, был одним из влиятельных представителей тюркского рода барласов. С юных лет Сахибиран отличался хорошей памятью, организаторскими способностями, упорством и трудолюбием, любил состязания, охоту и военные игры. Правление Амира Темура длилось 35 лет. Он создал государство, которое простипалось от Инда и Ганга до Сырдарьи и Зарафшана, от Тянь-Шаня до Босфора.

Духовное наследие эпохи Темуридов – одна из ярчайших страниц мировой истории. Блистательный взлет науки, архитектуры, градостроительства, изобразительных и прикладных искусств, литературы, поэзии, музыки является собой уникальный феномен мирового масштаба.

Большую часть жизни Темур провел в военных походах. Вместе с трофеями его воины привозили в Самарканд, Шахрисабз, Бухару видных ученых, искусственных мастеров, музыкантов и др. Создав огромную державу, Амир Темур подготовил условия для экономического и культурного развития страны. Возрождались вековые традиции прошлых эпох в новом историческом контексте. По мере того как Мавераннахр становился центром торговли, экономики и культуры Ближнего и Среднего Востока, благоустраивались Самарканд, Бухара, Термез, Ташкент, Кеш, Карши.

В эпоху Амира Темура развивалось зодчество. В Самарканде были построены мечети Бибиханум и Куксарой, мавзолей Шахи-зинда, в Шахрисабзе начато строительство дворца Оксарой. Вокруг Самарканда было разбито несколько садов – Боги Шамол, Боги Дилкушо, Боги Нав, Боги Чинор. Амир Темур уделял особое внимание строительству мостов, ирригационных сооружений, караван сараев, рабатов, каналов, мактабов, медресе и ханака, хаммамов.

Сахибиран привлекал мастеров в Самарканд и другие города Мавераннахра из Ургенча, Тебриза, Исфахана, Шираза, Багдада,

Алеппо и Дамаска, индийских городов. Ибн Арабшах писал об этом: «Темур с Дамаска увел в Самарканд обладателей влиятельных профессий и ремесел, искусственных ткачей, портных и швейников; работников искусства, художников, плотников ... живописцев-орнаментщиков, ... всех обладателей особого таланта».

Эпоха Амира Темура и Темуридов ознаменовала собой один из наиболее блестящих периодов в развитии литературы, прикладного и изобразительного искусства. В это время в стране возрождаются монументальная живопись, миниатюра. Именно на базе достижений того периода – политических, экономических и культурных – сформировалась плеяды блестящих ученых, мыслителей, поэтов и просветителей – Улугбек, Алишер Навои, Захирiddин Мухаммад Бабур и других.

В богатейшем духовном и культурном наследии Амира Темура и Темуридов, сохранившемся до наших дней, отчетливо проявляется его тесная связь с национальными всеми большую силу идеями гуманизма, освобождения человека и утверждения силы, разумности, красоты, свободы, созидающей личности, единства человека и природы. Амир Темур часто встречался с учеными и представителями духовенства, советовался с ними по вопросам управления страной и народом, строительства сооружений и зданий. Как свидетельствует историк, на одной из таких встреч Амир Темур говорил: «Известные люди науки и религии всегда помогали правителям своими советами. Я преследую цель установить справедливость в стране, укрепить порядок и мир, улучшить жизнь граждан, усилить строительство,



развивать государство. Вы должны своими советами помочь мне в этом деле».

Духовный подъем в эпоху Сахибирана создал благоприятные условия для развития не только науки и культуры, но и всех сфер музыкального искусства: вокального исполнения, композиторского творчества, музыкальной науки и образования. Широко распространялась система «мастер-ученик», имевшая многовековые исторические корни.

Амир Темур оставил огромный след в мировой истории не только как великий государственный деятель и полководец, но и как покровитель искусства, литературы, архитектуры. Во время его правления произошло возрождение материальной и духовной культуры. Были созданы центры обучения, построены библиотеки и академии, где изучали не только религиозные тексты, но и математику, астрономию, медицину и философию.

Таким образом, Амир Темур не только создал централизованное государство, но и способствовал развитию культуры, науки, экономики, литературы и искусства. Великому правителю удалось не только вернуть мир на родную землю, но и построить одну из крупнейших империй своей эпохи, где небывалого расцвета достигли государственное управление и хозяйствственные отношения, наука и образование, культура и духовность. Будучи разносторонне одаренным, Амир Темур прекрасно понимал, что без духовности невозможно существование общества и любой человеческой цивилизации.



## Интересные факты об Амире Темуре

Амир Темур несомненно вошел в историю как созидаатель. Во многом благодаря ему наука и медицина региона достигли значительного прогресса. Он строил города, крепости и мечети, сделал вклад в развитие культуры и искусства.

\*\*\*

Духовно-нравственные принципы Амира Темура дошли до нас в труде «Уложение Темура». Он был высокодуховным человеком, о чем свидетельствуют и этот труд, и интересные исторические факты. Историки уверяют, что Амир Темур входил в святое Бухару пешком и без оружия, а для беседы с учеными спускался с трона.

\*\*\*

Амир Темур не только читал и обсуждал с учеными исторические сочинения, но и делился информацией.

Его познания в истории удивили средневекового историка и философа Ибн Халдуна. Кроме того, Амир Темур воодушевлял своих воинов рассказами об исторических и легендарных героях.

\*\*\*

Особое значение Амир Темур придавал шахматам. Они были одной из его любимейших интеллектуальных игр. Он даже приказал написать брошюру, в которой описано 60 шахматных этюдов.

\*\*\*

Амир Темур был умнейшим военачальником, однако старался решать многие проблемы дипломатически. Он писал: «В управлении я руководствовался кротостью, человеколюбием и терпением. Был одинаково благосклонен как к врагам, так и к друзьям».



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)




[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

 Страницы недавней истории

# ОДИН ИЗ МНОГИХ



На протяжении всей истории существования Советского Союза не прекращались репрессии. Наибольший пик достиг в конце 30-х годов прошлого столетия. В середине 80-х начался новый этап беззакония и репрессий. Теперь гонениям подверглась не только творческая, но, главным образом, политическая интеллигенция, сотрудники правоохранительных органов, представители которой понимали порочность существующей социально-экономической системы, ущемлявшей национальные интересы республики.

До конца 1988 года в Узбекской ССР продолжались кадровые перестановки и чистки под флагом «борьбы с коррупцией». Накануне достижения независимости Узбекистан находился в кризисной социально-экономической ситуации, но в нем шли благотворные процессы национального возрождения, дающие перспективу прогрессивного развития.

...После окончания Наманганского педагогического института Шокирjon Maximov был принят на службу в органы внутренних дел Андижанской области. Работал сотрудником карантинного отделения Андижанского ГОВД, заместителем начальника, начальником первого отделения отдела внутренних дел города Андижана, начальником Кургантепинского, Андижанского районных отделов

внутренних дел, начальником Ханабадского ГОВД и, во второй раз, по просьбе руководства района, был назначен начальником Кургантепинского РОВД.

В середине 80-х годов, когда подполковник Ш. Максимов служил начальником Андижанского РОВД, поступило распоряжение районного исполнительного комитета о выделении каждому сотруднику земли для строительства дач в адырной зоне Тешкиташ. Участки были распределены между сотрудниками. Кто-то сразу приступил к посадке фруктовых деревьев и строительству дач, другие ждали, когда на участки будет подведена вода для поливов.

Один из сотрудников районной ГАИ решил, что ему выделили плохой участок земли. Недолго думая, он написал донос клеветнического содержания в ЦК КПСС в Москву. В своей жалобе указал, что начальник РОВД подполковник Ш. Максимов захватил лучший земельный участок, в два раза превышавший участки сотрудников.

Спустя некоторое время в Андижанский район из МВД ССР приехала комиссия. Ей была поставлена цель – наказать зарвавшегося начальника РОВД. Члены комиссии тщательно измерили дачные участки сотрудников. Участок начальника ничем не отличался от других. Но членам комиссии надо было найти недостатки в работе подполковника Максимова. Шла



проверка за проверкой, ничего противозаконного не обнаружив члены комиссии сделали заключение, что начальник РОВД занимается укрывательством преступлений.

Ш. Максимов был уволен со службы, а решением суда ему было назначено наказание – три с половиной года исправительных работ. Тогда Шокиржону Максимову было 49 лет. С обретением независимости, решение суда было отменено, он был реабилитирован.

Судебные разбирательства и незаконный срок исправительных работ подорвали здоровье подполковника в отставке. Но он не падал духом. С ранней весны и до поздней осени пропадал на даче. Выращивал овощи и фрукты, значительную часть урожая безвозмездно передавал в детские дошкольные учреждения города Андижана и Андижанского района.

Пять лет назад подполковник в отставке Ш. Максимов скончался после тяжелой болезни.

Человека нет с нами, но память о честном, справедливом руководителе живет в сердцах...

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

Андижанская область.

Фото из семейного архива.

 Притчи

## О ПОЛЬЗЕ ЧТЕНИЯ



Человек спросил у мудреца:

– Зачем читать книги, ведь ты уже мудр?

На что старец ответил встречным вопросом:

– А зачем ты ел сегодня, ты же ел вчера?

Человек, подумав, сказал:

– Чтобы поддерживать жизнь в теле, я пытаюсь чтобы не умереть.

Мудрец заметил:

– Правильно! Вот и я, читая книги, поддерживаю жизнь своего духа, питая его мудростями.

\* \* \*

Ученик сказал однажды мудрецу:

– Учитель, по вашему наставлению я уже прочитал десять книг, а никакой пользы не чувствую.

Мудрец молча протянул ученику финик. Тот съел его.

– Стало ли твоё тело сильнее? – спросил он после.

– Нет, – ответил ученик.

– Между тем плод превратился в витамины, и его польза проявится незаметно для тебя. Точно также чтение книг обогащает знания, расширяет кругозор, обогащает словарный запас, постепенно улучшая твою речь, – заметил мудрец.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

O'QUV YIG'INI

# HARBIY QISMIDA IKKI KUN

Mamlakatimizda uyushmagan yoshlarni tarbiyalash, kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, jamiyatda o'rnnini topishiga ko'maklashishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Navoiy viloyatidagi 7532-harbiy qismda o'tkazilgan «Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari» o'quv yig'ini fikrimizning yana bir tasdig'i bo'ldi. Dastlab o'quv yig'iniga viloyat markazi va yondosh tumanlar yoshlari, so'ngra olis hududlar – Zarafshon shahri, Uchquduq hamda Tomdi tumanlari yoshlari jalb etildi.



O'quv yig'ini avvalida viloyatdagi huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari yoshlarga murojaat qilishi. Yoshlar bilan o'zaro uchrashish chog'ida Yangi O'zbekistonni faqat fidoyi va vatanparvar yoshlar bilan bunyod eta olish mumkinligi alohida ta'kidlandi.

Tadbirga jalb etilgan yoshlarga harbiy libos tarqatilgani ularning Vatan himoyachisi bo'lishga ishtiyoqini yanada oshirib yubordi. Yoshlar, ayniqsa, safda turish, yurish, boshqliqa axborot berish singari mashg'ulotlarda katta qiziqish va mas'uliyat

idora qilish, stress holatidan chiqishga qaratildi.

Jismoniy va taktik mashg'ulotlarda qatnashchilarda o'zini himoya qilish, huquqbuzarni qo'lga olish hamda



jangovar quoldan to'g'ri foydalananish ko'nikmalari shakkantirildi. Shuningdek, ular o'rtasida to'sinda tortilish, arqon tortish musobaqlari o'tkazildi. Shaxmat-shashka bahslari esa turli tumanlardan kelgan yoshlarni yanada jipslashtirdi, ularga bir-birlari bilan yaqindan tan-



bilan ishtirok etishdi. Shundan so'ng tajribali ustozlar tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhuda tarbiyalash, ularda yurt taqdiriga daxldorlik hissini yanada kamol toptirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy darslar olib borildi, mamlakatimizning istiqlolga erishish tarixi borasida ma'lumotlar berildi. Psixologik mashg'ulotlarda esa asosiy e'tibor murakkab vaziyatlarda o'zini



ishish, ochiq muloqot qilish imkonini berdi.

Ikki kun davomida yoshlar ruhan chiniqli. Harbiylarga xos hayot tarzi, qat'iy intizomga rioya qilishdan tortib gitarada askar qo'shig'i kuylashgacha bo'lgan barcha jarayonlar manzur bo'lganini ularning yuz-ko'zidan bolib olish qiyin emasdi.

– O'quv yig'iniga faxriylarning ham taklif etilgani ayni muddao bo'ldi. Sababi, harbiy qismda askarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishar ekanmiz bunday kunlar uchun shukrona aytishimiz lozimligini ta'kidladik, – deydi iste'fodagi podpolkovnik Abbas Karimov.

Shuningdek, tadbirka yoshlar viloyat Monomarkazidan kelgan turli kasb egalari: maishiy texnika va elektr ustalari, mexanik hamda sartaroshlar bilan suhbatlashdilar. Qatnashchilar qaysi kasbni qay tartibda egallab, tegishli hujjatga ega bo'lish borasidagi savollariga mutaxassislardan batafsil javob olishdi. Viloyat Adliya boshqarmasi mutasadilari esa tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish, yer va noturar joylarni ijaraga olish kabi masalalar yuzasidan tushuntirishlar berishdi. O'quv yig'ini yakunida tadbir ishtirokchilari uchun konsert dasturi hamda teatr tomoshalari tashkil etildi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, hayotda o'z yo'lini izlayotgan, har bir imkoniyatga umid bilan qarayotgan yoshlar uchun mazkur tadbirning ahamiyati benihoya katta. Boisi, egniga harbiy libos kiygan ko'pgina uyushmagan yoshlarning qalbida kelajakda Vatan himoyachisi bo'lish orzusi kurtak yozgan bo'lsa, ne ajab... Mahliyo XOLOVA, o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

FIDOYI HAMKASBLAR

## ODAMLARGA NAFIM TEGSA

– deydi safdar  
Azizbek Mamadiyorov

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda YPX xodimlarining munosib o'rni bor. O'z vazifasini astoydil bajarib kelayotgan fidoyi xodimlardan biri Chirchiq shahar IIB yo'l-patrol xizmati inspektori, safdar Azizbek Mamadiyorovdir.



U biringa o'tgan yilning o'zida 1900 dan ortiq qoidabuzarliklarni aniqladi. Shu bilan birga, o'g'rilik, firibgarlik jinoyatlarini sodir etib, sud va tergov organlaridan qochib yurgan 2 nafar qidiruvdagи shaxsni qo'lga olishga hissa qo'shdi.

...Shoshilgancha Chirchiq markaziy dehqon bozoriga kirib ketgan M.O. mashinasi eshigini qulflashni yodidan chiqardi, uning ustiga, kalitni ham avtomobilida qoldirdi. Buni zimdan kuzatib turgan S.S. esa u ketishi bilan darhol mashinaga o'tirdi...

Bozordan chiqqan avtoulov egasi ne ko'z bilan ko'rsinki, mashinasi joyida yo'q. Darhol mazkur hududda faoliyat olib borayotgan safdar A.Mamadiyorovga murojaat qildi. Osyoishtalik posbonining sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda olib borgan sa'y-harakatlari natijasida jinoyatchi qo'lga olinib, avtomobil o'z egasiga qaytarildi. Bundan quvongan jabrlanuvchi xodimga minnatdorlik bildirdi.

On uch yıldan buyon tizimda xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni 3 nafar farzandining ham o'zi kabi odamlarga nafi tegadigan, uning tinchligi va taraqqiyoti yo'lida bor kuch-g'ayratini ayamaydigan jonkuyar insonlar bo'lishini niyat qiladi.

Mixli SAFAROV,  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdaramsiy](https://t.me/postdaramsiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

 Tuman IIB faoliyatidan

## TADBIRKOR-U ISHBILARMONLAR YURTI

**G'ijduvonda 75 ta mahalla bo'lib, 332 mingdan ziyod aholi yashaydi. Tuman IIB xodimlari aholining tinchlik-osoyishtaligini ishonchli ta'minlashmoqda.**

– Tumanimizda jinoyatchilik joriy yilning dastlabki ikki oy mobaynida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foizga kamayishiga erishildi. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, talonchilik, transport vositasini olib qochish kabi jinoyatlar umuman sodir etilmadi. Xodimlar tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlar yil sayin oshib bormoqda. Profilaktika inspektorlari shu kunga qadar sakkizta jinoyatni ochib, uch nafar qidiruvdagi shaxs yashiringan joyni aniqlashdi, – deydi tuman IIB JXX Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i, mayor Shokir Bozorov.

Masalan, joriy yil 21-fevral kuni taxminan kech soat 23:40 larda «Yangiobod» mahallasining hudo-di profilkaitika inspektori, kapitan D. Asatullayevning ma'lumotiga asosan tuman IIB TQX Jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari bilan tezkor tadbir o'tkazildi. Tadbirda Janubiy arablar qishlog'ida yashovchi R.Sh. yashash uyida bangixona tashkil

qilganligi aniqlandi. U tanishlari O.Sh., A.A., I.Y. va N.N.larga marixuana giyohvandlik vositasini iste'mol qilish uchun sharoit yaratib bergen edi. Xullas, R.Sh.ga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Aholi o'rtaida profilaktik ishlarni olib borish hamisha diqqat markazida. Inspektorlarning o'zlariga biriktirilgan mahallalardagi manzilli profilaktik ishlari, qolaversa, mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda olib borayotgan sa'y-harakatlari natijasida ko'rsatkichlar va yutuqlar ijobjiy tomonga siljiyapti. Misol uchun aytadigan bo'lsak, o'tgan ikki oy davomida olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida 54 ta mahallada umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Sodir etilganlari mahallalarda o'z vaqtida muhokama qilinib, kelib chiqish sabablari chuqur tahlil etilmoqda. Ularda ishtirok etgan aholi, xususan, yoshlarga har qanday jinoyat kishini tubanlik botqog'iga botirishi, el orasida yuzini shuvut



qilishi hayotiy misollar yordamida tushuntirilyapti.

Shuning bilan bir qatorda, notinching, nizoli oilalarini, spirtli ichimlikka ruju qo'yan, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga mahalla faollari hamda yaqin qarindoshlari orasidan mas'ullar biriktirildi. Ular bilan doimiy profilaktik suhbatlar olib borish yo'lga qo'yildi.

Abdulla Qahhor nomli mahalla fuqarolar yig'inida o'tgan yili 4 ta jinoyat qayd etilganligi bois «qizil» toifaga kiritilgan edi. Tajribali profilaktika katta inspektori, kapitan Rustam Muhiddinov ushbu huduga biriktirilgach, mahalla raisi va faollari bilan hamjihat-u ahillikda ishni tashkillashtirib, qisqa fursatda mahallani «Yashil» toifaga aylantirdi.

– Dastlab ishni mahallaning «issiq nuqta»larini o'rganishdan boshladim. Ayniqsa, jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan ijtimoiy profilaktika obyekti bo'yicha 14 toifadagi shaxslar ro'yxatini shakllantirdim. Keyin ular

bilan doimiy profilaktik suhbatlar o'tkazib, muammolarini joyida hal qilishga erishdim. Ya'ni, 57 nafar shaxsga nisbatan xulosa bergen bo'lsak, olib borilgan salmoqli ishlarni natijasida 34 nafari ayni paytda ijobjiy tomonga o'zgardi, – deydi kapitan R. Muhiddinov.

Eng asosiysi, mazkur mahallada ustoz-shogird an'anasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kapitan R. Muhiddinov ustozlaridan egallagan bilim-tajribalarini ayni paytda yosh xodimlariga o'rgatib kelmoqda. Jumladan, IIV Akademiyasi bitiruvchisi, Sardor Qo'idoshev amaliyot o'tash uchun unga biriktirilgan.

Qisqasi, tuman ichki ishlarni boshqarmasi xodimlari yaratilayotgan xizmat sharoitlaridan unumli foydalanib, zamonga hamohang faoliyat olib bormoqda. Ular zimmalidagi vazifani vijdongan ado etar ekan, mamlakatimizda osoyishtalik bardavom bo'laveradi.

**Mirzoqul AHADOV,  
o'z muxbirimiz.**

Buxoro viloyati.

 FARG'ONA VILOYATI

Ramazon oyida keksalarni qadrlash, bemorlar holidan xabar olish ezgu an'analaramizdan sanaladi. Farg'onada ichki ishlarni organlarida uzoq yillar davomida xizmat qilib, hozirda keksalik gashtini surayotgan faxriylarga ehtirom ko'rsatildi.

Jumladan, Rishton tumani IIB rahbariyati va faxriylar kengashi a'zolari «Yuqori Beshkapa» mahallasida yashovchi iste'fodagi serjant Muhammadjon Madaminov hamda «Dasht Pandigon» mahallasida istiqomat qiluvchi iste'fodagi kapitan Azimjon Hamdamovning holidan xabar olishdi.

Shuningdek, yosh xodimlar yolg'iz yashovchi faxriylarning xonadonida bo'lib, obodonlashtirish ishlarni amalga oshirishdi.

O'z muxbirimiz.



 MULOHAZA

# Bolangiz NIIMA o'ynayapti?

Sir emaski, internet insonlar hayotiga qandaydir o'yinlarni o'ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan foydali ma'lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan. Hozirda qishloq va shahar o'rtaida axborot tarqalishi va iste'molchi sifatida farq deyarli mavjud emas. Ya'ni, zararli axborotlar manzil tanlamay, bir zumda ommaga yetib borishi muammo emas.

Ayniqsa, internetning mislisiz rivojlanishiga yo'l ochilgan XX asr oxirlaridan boshlab, kompyuter (mobil telefon, smartfon) o'yinlarining ommalashishi yoshlarga salbiy ta'sir qilayotgani haqida olimlar ko'pdan beri dunyo ahlini ogohlantirib kelishadi. Hatto Yevropa mamlakatlari da «o'yinbozlik» xastaligini davolaydigan maxsus shifixonalar ochiganligi, masala naqadar chuqur va og'riqli ekanligidan dalolat berib turibdi.

Ma'lumki, bolalar beg'ubor bo'lgani bois ro'parasidagi odamdan yomonlik kutmaydi. Xuddi shu tariqa, bola o'zi uchun qiziqarli bo'lgan o'yinlarning salbiy oqibatlarga olib kelishni o'ylamaydi ham. Ularni hushyorlikka o'rgatish, tushuntirish ishlarni olib borish, eng asosiysi, ko'ziga chirolyi ko'ringan narsalarga mahliyo bo'lib ketadigan darrajada nodonlik botqog'iga

va mukofotlaridan ajralganiga chidayolmay, o'z joniga qasd qilgani ma'lum bo'ladi. 2004-yili Buyuk Britaniyada 17 yoshli Uorren Leblan 14 yoshli Stefan Pakirning joniga qasd qildi. Sud jarayonida ayblanuvchi kompyuter o'yini ta'siriga tushib, qotillik sodir qilganini aytadi.

Yana bir misol, yuksak texnologiyalar rivojlangan mamlakatlardan hisoblanmish Janubiy Koreyada jangovar o'yinlar ishqibobi bo'lgan 28 yoshli yigit olamdan o'tadi. Ma'lum bo'lishicha, u uch kecha-kunduz davomida kompyuter o'yinlaridan chiqmagan. Faqt hojatxonaga chiqish va gohida ozgina mizg'ib olish uchun o'yin stoldan turgan, xolos. Bungacha o'g'li necha kundan buyon bedarak ketganidan tashvishga tushgan ona yordam so'rab, bolasining «sobiq hamkasblari»ga murojaat qiladi. «Sobiq» deyishimizga sabab, o'g'il o'yin-



botishigining oldini olish ota-onasi va pedagoglarning jamiyat oldidagi burchidir.

2002-yili amerikalik Shon Villi ismli 21 yoshli yigit o'zini o'zi peshonasidan otib o'ldirdi. Aniqlanishicha, u «EverQuest» nomli kompyuter o'yiniga mukkasidan ketgan ekan. Keyinchalik uning o'sha o'yinda yutqazib, yig'gan ballari

larga berilib ketgani oqibatida bir oy oldin ishdan haydalgan edi. Ayol to'g'ri yo'l tutgandi. Chunki sobiq hamkasblar «o'yin bandisi»ni juda oson topishadi. U yaqin oradagi kompyuter o'yinlari markazida edi. «O'yinlar quli» darhol uyga yetib borishi kerakligini aytishgani-da: «Shu bosqichni oxi-



riga yetkazib qo'yay, albat-ta, boraman», deb javob beradi. Biroq bir necha daqqaq o'tib, yurak xuru-jidan vafot etadi. Tashxisga ko'ra, yurak xuruji qattiq charchoq holating haddan ortiq cho'zilib ketishi bois yuzaga kelgan. O'yinbozlikning «xumori» nafaqat bolalar va o'smir-ilar, balki dunyoqarashi shakllanishga ulgurgan, salkam 30 yoshni qarshilagan insonlarni ham hayotdan olib ketayot-ganligi albatta jiddiy xu-losalar qilishga undaydi. Janubiy Koreyada vafot etgan yigit bolaligidan virtual o'yinlarga qaram bo'lib ulg'aygan, ota-onasi yoki yaqinlari uni nazorat qilma-gan bo'lishi mumkin. Aniqrog'i, o'lim bitta o'sha episod bo'yicha emas, uzoq yillar surunkali ravishda davom etgan «faoliyat» natijasi sifatida baholanishiga

ko'proq undamoqda. Balki, kimdir uni o'z vaqtida bu yo'ldan qaytarganida ayanchli voqeа ro'y bermasmidi?

Chunki bola oppoq qog'oz kabidir. Unga nimani yozsan-giz, o'shani o'qisiz. Go'dakni «ovutish» uchun qo'liga telefond tutqazib «tinchlantirayot-gan» ota-onalar hozir kammi oramizda?

Yuqoridagi fikrlarimiz hamma o'yinlarning salbiy ekanligini anglatmaydi. Xotirani kuchaytirishga, chet tillarini o'rganishga, yangi bilimlar olishga ko'maklashadigan virtual o'yinlar ham yetarlicha. Buni, albatta, e'tirof etish kerak. Lekin o'zingizning, oilangizning xavfsizligi hamda xotirjamligi uchun farzandingiz kompyuterda yoki smartfonida AYNAN QAYSI YO'NALISH-DAGI o'yinlarga vaqt ajratmoqda, degan savol ichidagi asosiy nuqtaga e'tibor qaratib qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi. Zero, shu orqali ko'p fojialar, ko'ngilsizliklarning oldini olishga ulgurish mumkin. Negaki, Janubiy Koreyada yuz bergen holat bizda takrorlanmasligiga kim kafolat bera oladi?!

**Abror POYONOV,  
o'z muxbirimiz.**

 MARDILAR QO'RIQLAYDI VATANNI

## YIGIT KISHINING BURCHI

Buxoro viloyatida joylashgan 7536-harbiy qismning maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi harbiy xizmatchilari yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xizmat olib bormoqda. Ular asosan jazoni ijro etish muassasalari va harbiy shaharchani qo'riqlash hamda mudofaa qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlanish kabi mas'uliyatli vazifalarni ado etishmoqda.

Xizmatdan bo'sh paytda jismoni yaxshi tayyorlilik va sport bilan shug'ullanishadi, kitob mutolaa qilishadi. Jamoada «ustoz-shogirdlik» an'analarini keng rivojlangan. Yosh xodimlarga tajribali harbiy xizmatchilar murabbiy etib tayinlanadi.

Vzvod shaxsiy tarkibi har yili Ichki ishlari vazirligi hamda Qorovul qo'shinlari miqyosida o'tkazilayotgan sportning qo'l jangi, boks, kurash va sambo turlari bo'yicha musobaqalari, hamda «Dovyurak jangchi» va «Alvon beret» kiyish huquqini berish sinovlarda ham faol qatnashib, bir qator yuksak natijalarga erishib kelmoqda.

Xususan, vzvod komandiri, kapitan Nurali Karimov 2022-yilda «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlarda g'olib bo'lgan. Bundan tashqari, Qurolli Kuchlar miqyosida o'tkazib kelinayotgan «O'z kasbinining ustasi» ko'rik-tanlovida ham faol qatnashib, 2022-2023-yillarda tanloving «Eng ilg'or guruh

komandiri» nominatsiyasida faxrli 3-o'rinni egalladi.

Sportning qo'l jangi turi bo'yicha Qorovul qo'shinlari qo'mondoni kubogi musobaqasida katta leytenant Sirojiddin Oqqulov va oddiy askar Mahmud Murodov birinchi o'rinni, kichik serjant Aydinbay Kenesbayev ikkinchi o'rinni egallab, jamoaning faxriga aylandi.

Hozirgi kungacha III darajali serjantlar S. Hamdamov, N. Achilov, kichik serjantlar A. Po'latov, M. Xo'ja-murodov, O. Rasulov, B. Shukurov «Dovyurak jangchi» nishonini olishga musharraf bo'lishdi. Qolaversa, kichik serjantlar S. Ergashev va D. Tajihev qo'shin qo'mondoni tashabbusi bilan joriy etilgan «Alvon



beret» kiyish huquqini berish sinovlaridan o'tishdi. Qorovul qo'shinlari tashkil topgанинг 25 yilligi munosabati bilan III darajali serjant Nosir Achilov «Qo'shin a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Qisqasi, mazkur harbiy qismning maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan mard va jasur yigitlar xizmat qilmoqda. Shundaylar bor ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, hayotimiz yanada farovon bo'laveradi.

**Elyor GAFFOROV,**  
podpolkovnik.  
*Buxoro viloyati.*

 YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

## IZLANUVCHANLIK MEVASI

Kasbga yo'l bolalikdan boshlanadi, deyishadi. Aynan bolalarning orzulari, qiziqish va qobiliyatlar keyinchalik chinakam maqsadga aylanishi mumkin. Nodirbek Ahmadjonov ichki ishlari organlari xodimlari haqida ko'p kitob o'qigani bois kasb tanlash vaqtiga kelganda «men tergovchi bo'laman», deb qat'iy qaror qildi.



2020-yilda IIV Akademiyasini tamomlagan yosh mutaxassis Xonobod shahar IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi etib tayinlandi. Mayor Avazbek Qobulov unga ustozlik qilib, tajriba va bilimlarini beminnat o'rgatdi. Keyinchalik Jalaquduq tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi, Andijon shahri bo'yicha IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi lavozimlarida xizmat qilgan katta leytenant N. Ahmadjonov 2023-yilda Andijon viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi etib tayinlandi.

O'tgan yil oxirida Andijon viloyati ichki ishlari organlariga firibgarlik jinoyatlari bo'yicha arizalar ko'paydi. Ma'lum bo'lishicha, viloyat markazida yashovchi bir necha kishi odamlarning ishonchiga kirib, ularidan kreditga qimmatbaho maishiy texnika: muzlatkich, konditsioner, kir yuvish mashinasi, idish yuvish mashinasi xaridini o'z nomiga rasmiylashtirishni so'ragan. Ishonuvchan fuqarolarga kredit to'lashga to'g'ri kelmasligini, aksincha, bezovta qilgani uchun o'zi ma'lum miqdorda pul berishini aytgan. Firibgarlarga ishongan fuqarolar bu shartga rozi bo'lib, o'z pasportlarini notanish shaxslarga berishgan. Ular maishiy texnika xaridini

pasport egalari nomiga rasmiylashtirib, texnikani olib ketishgan.

Oradan bir necha oy o'tib, pasport egalarining manzillariga sotib olingan maishiy texnika uchun qarzni to'lash talabi bilan bildirishnomalar hujjalari kela boshladi. Ular sarosimaga tushib, ichki ishlari organlariga murojaat qilishdi. Tergovga qadar tekshiruvda ma'lum bo'lishicha, aldangan ayrim fuqarolar firibgarlarni telefonlariga suratga olishgan ekan. EKM mutaxassislari yordamida ikki firibgarning shaxsini aniqlashga erishildi, ulardan biri ayol bo'lib chiqdi. Uchinchi shaxsni esa mobil telefon raqami orqali aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Guman qilinuvchilar qo'liga olindi. Ularga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga ko'ra ish qo'zg'atildi.

– Bunday noplak kimsalar qilmishlarini fosh etishga va jazoni muqarrarligini ta'minlashga erishganimizda, – deydi katta leytenant N. Ahmadjonov. – Birinchi navbatda ustozlar o'giti va ko'rsatmalari asqatadi. Zero, biz erishgan har bir yutuq ular bergen bilimlar, o'gitlar va maslahatlar mevasidir.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.  
*Andijon viloyati.*



## ■ г. Ташкент

**В учебно-полевом центре  
МВД состоялась встреча трех поколений  
с участием слушателей учебного курса  
по первоначальной профессиональной подготовке  
Института повышения квалификации.**

Ее организовали старший преподаватель цикла боевой подготовки института подполковник Жалолиддин Жумабоев и преподаватель капитан Хусан Муслимов.

Была подчеркнута важность подобных мероприятий в пропаганде гуманистических традиций и ценностей, свойственных нашему народу.

В мероприятии участвовали ветераны органов внутренних дел во главе с председателем Совета ветеранов ГУВД г. Ташкента полковником в отставке Муроджоном Каримовым.

## ■ Самаркандская область

# ПРОБАЦИЯ – ЗНАЧИТ ПОМОЩЬ



**Принято считать, что служба пробации создана для осуществления исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы, и контроля за поведением условно осужденных и условно-досрочно освобожденных. Но это лишь часть возложенных задач.**

В настоящее время в отделении пробации при УВД области состоят на учете свыше 8,6 тысячи граждан.

– С преобразованием структуры сотрудники службы пробации начали делать акцент на выявлении рисков повторного преступления и изучении личности, – отмечает инспектор по особо важным поручениям СОБ УВД Самаркандской области майор Нодир Каримов. – В борьбе с правонарушениями важную роль играет профилактика. Это встречи и выездные приемы с изучением проблем, проведение массовых мероприятий, обучение

граждан профессиям. При этом особый акцент делается на женщин, которые считаются более уязвимыми в обществе.

Текущий год для службы пробации ознаменовался проведением массовых мероприятий. Первыми были охвачены женщины Ургутского района, где чаще всего регистрируются ранние браки. Пока общество не придет к выводам, что ранние браки – уголовное преступление, причиняющее вред обществу и стране в целом, регион так и будет оставаться одним из лидеров по количеству браков с участием несовершеннолетних.

Одной из мер для устранения причин совершения правонарушений является оказание помощи в трудоустрой-

стве подопечных. Так, в Нарпайском районе 36 женщин получили необходимую бытовую технику. Кто-то попросил печь, кому-то выдали швейную машинку. Подобная мера, по словам сотрудников службы пробации, помогает женщинам начать работать и обеспечивать нужды семьи.

Накануне празднования весеннего праздника Навруз в отдаленном Нарпайском районе прошел турнир по мини-футболу, в котором приняли участие мужчины, состоящие на учете службы пробации.

А сотрудниками службы пробации Иштыханского района организована экскурсия в информационно-библиотечный центр, где молодые люди ознакомились с информацией о том, как получить абонемент и пользоваться электронными книгами.

С начала года на курсах профориентации в монокомплексе «Ишга мархамат» обучаются более ста человек. В ближайшие дни они получат сертификаты и будут трудоустроены.

**Замира БАЛТАЕВА,  
соб. корр.**





## АКТЁРЛАРНИНГ ХЎЖА НАСРИДДИНИ

**Бекиёс комик истеъдод соҳиби, Ўзбекистон халқ артисти Сойиб Хўжаевнинг исмими эши-тишингиз билан юзингизга табассум югуради. Овози янграса, ўзингизни кулгудан тўхта-толмайсиз. Забардаст актёр (1911–1981) 2003 йилда «Буюк хизматлари учун» ордени билан мукофотланган.**

**Y**анджонда Худойназар ҳожи хонадонида таваллуд топган. 11 ёшида отасидан етим қолиб, акасининг қўлида тарбияланган. Бўлажак санъаткор болалигиданоқ ҳазил-мутойибага, томоша ва ҳангомаларга ўч бўлиб ўсади. У кўрган-билғанларини тенгдошларига ўзидан бир оз қўшиб, жонлантириб, қизиқарли тарзда айтиб бериб, ҳаммани кулдириб юрарди. 1921 йили Юсуфжон қизиқнинг халқ анъанавий театри билан илк учрашуви Сойибжонда катта таассурот қолдирди. Ҳойнаҳой, шундан кейин санъаткор бўлишга қатъий қарор қилгандир.

Сойиб Хўжаев дастлаб Кўкон, Андижон, Наманган театрларида ишлаган. 1939 йилдан то умрининг охиригача Муқими номидаги мусиқали комедия театрида қизгин ижод билан шуғулланди. Жумладан, «Майсарапнинг иши»да Мулладўст, «Нурхон»да Ҳузурхўжа, «Ажаб савдолар»да Вали қассобга ўхшаш кўплаб ёрқин образлар яратди. Айниқса, «Тошболта ошиқ» комедиясидаги Тошболта роли унга улкан шухрат келтирди. Бу ролда 1500 марта саҳнага чиқди. Актёр Тошболтанинг ҳар сафар ўзгача қиррасини кашф этарди.

Беназир санъаткор кинода ҳам такрорланмас образлар яратди. «Насриддининг саргузаштлари»даги чойхоначи, «Ёр-ёр»даги Аҳмаджон,

«Дилбарим»даги Зухуров, «Еттинчи жин»даги Султон образлари шулар жумла-сиандир. Ҳатто «Чинор остидаги дуэль» фильмидағи эпизодик ролни ҳам қойилмақом қилиб ижро этган.

Таникли актёрнинг маҳорат сирлари ҳақида гап кетганда, авваламбор, унинг шак-шубҳасиз улкан истеъдод соҳиби бўлғанлигини эътироф этиш жоиз. Унга замондош бўлган санъат соҳа-

ташқари, ҳалқ қизиқчиларининг бадиҳагўйлик, мимика ва тақлид воситаларидан, сўз ўйини анъаналаридан усталик билан фойдаланди.

Сойиб Хўжаев ҳалқ ўртасида ниҳоятда машҳур бўлган. Унинг ҳажвий сўзлари, хатти-ҳаракатлари, мутойибалари бугун ҳам ҳамкаслари, дўустлари, мухлислари ва шогирдлари томонидан телекўрсатув, радиоэшиттириш, байрам сайиллари, тантанали маросимларда ижро этилиб, матбуот саҳифаларида әълон қилиниб, ҳалқимизга маънавий озука бермоқда.

Уни замондошлари ўзбек ҳалқининг Насриддин афандисига ўхшатиш



си мутахассисларининг таъкидлашича, ҳар бир ўйнаган ролида сўзларининг 60-70 фоизини ўзи тўкиб қўшар экан. Бундай импровизация қилиш қобилияти ҳаммага ҳам насиб этавермайди.

Қолаверса, тинимсиз меҳнат, кузатувчанлик, ҳаётни ўрганиш ўз самарасини берди. Устоzlарининг маслаҳатларига амал қилди, ўз устида тинимсиз ишлаши туфайли саҳна кулгуси, сатира ва юмор воситаларини пухта ўзлаштириди. Бундан

ган. Бу бежизга эмас. Бойси турли ҳангомалар унинг изидан эргашиб юрган, кирган даврасида кулгу кўтарилиган. Ёдингизда бўлса, «Ёр-ёр» фильмида ўзи ҳам исмими сўраган қизга «Хўжа Насриддин!» деб жавоб беради.

Шу ўринда мазкур фильмдаги яна бир эпизодни ёдга олсак. Унда Сойиб Хўжаев ижросидаги Аҳмаджон радио орқали футбол ҳақидаги репортажни тинглаётган бўлади. «Пахтакор» ютқизаётгани учун шарҳловчи «Командага бугун нимадир етишмаяпти» – деганида, жиғибийрони чиқсан Аҳмаджон «Мен етишмаяпман, мен!» – дейди. Ҳа, бугунги театр ва кино санъатимизда Сойиб Хўжаев етишмаяпти. Зоро, улкан санъаткорларнинг ўрнини ҳеч ким боса олмайди.

**Бобомурод ТОШЕВ тайёrlади.**



Қуида драматург Ҳайдар Муҳаммаднинг «Сойиб Хўжаев ҳангомалари» китобидан айрим парчаларни эътиборингизга ҳавола этамиз.

### ЗИНДОН ЭНАНГНИНГ УЙИМИДИКИ, ЧИРОҚ ЁҚИБ ҚЎЯДИГАН

Муқимий театрининг «Равшан ва Зулхумор» спектаклида зинданни тешиб чиқиши саҳнасида Равшан ролини Ҳамза Умаров, Эрсак ролини Сойиб Хўжаев ўйнар экан.

Бир куни Сойиб Хўжаев Ҳамза Умаровга:

– Постановка бўйича, биласан, зинданни мен олдин тешиб чиқаман, кейин сен чиқасан, шундайми? – дейди.

– Шундай, – дейди Ҳамза Умаров.

Шунда Сойиб Хўжаев:

– Бугун зинданни сен олдин тешиб чиқасан, кейин мен чиқаман, – дейди.

Спектакль чоғида Ҳамза Умаров зинданни тешиб чиқиб:

– Вой-бўй, бу ер намунча қоронғи, – дейди.

Сойиб Хўжаев:

– Зиндан энангнинг уйимидики, чироқ ёқиб қўядиган. Зиндан қоронғи бўлади-да, – дейди.

Залда гулдорос қарсак янграйди.

Шу куни асар муаллифи Комил Яшин келиб, спектакль кўраётган экан. Раззоқ Ҳамроевга: «Сойибжон топиб айтди, шу сўзни пъесага киритиб қўйинг», – деган экан.

### БОШ ҲИСОБЧИ ВАЗИРДАН ЗЎР ЭКАН

Сойиб Хўжаев ўғилларидан бирини уйлантираётганда 70-йиллар пулида 400 сўмга зориқиб қолади. Маданият вазирининг олдига кириб, ёрдам беришини сўрайди. Вазир сира иложи йўқлигини айтиб кузатиб қўяди. Вазирнинг олдидан чиқиб, санъат бошқармаси бошлиғидан 400 сўм қарз тўғрилаб беришини сўрайди. У ердан ҳам иложи йўқлиги ҳақида жавоб олиб чиқади.

Муқимий театрига, ишхонасига келиб, хомуш юрганида директор кўринади. Дириекторга ҳам дардини айтади. Ундан ҳам рад жавобини олади. Бойвачча қўшнисидан сўрайди. У ёши олтмишдан ошган одамга қарз бериб бўлмайди, деб ҳазил аралаш кўнглини синдиради.

Хуллас, эртаси куни репетицияга ярим соат олдин келиб хомуш ўтиrsa, театрнинг бош ҳисобчиси ўрис чол олдига келиб: «Сойибжон, сен ёрдам бер, бир дори тополмаяпман, сени ҳамма танийди», – деб мурожаат қиласи. «Рецепти борми?» – сўрайди Сойиб Хўжаев. «Бор, мана», – деб чўнтағидан рецептни олиб беради чол. Сойиб Хўжаев ўзи аъзо бўлган ҳукумат дорихонасига бориб, дорини олиб келиб беради. Бош ҳисобчи хурсанд бўлиб олади.

Сойиб Хўжаев чиқиб кетаётганда: «Сойибжон, агар сенга пул-мул зарур бўлиб қолса, менга айтсанг, тўғрилаб бераман. Кейин ойлигиндан суришаверамиз», – дейди. Бирдан тўйига 400 сўм зарурлиги эсига тушиб қолиб, ҳисобчига дардини айтади. «Шуни менга олдинроқ айтсанг бўларди-ку», – деб кассирга 500 сўмга қофоз ёзиб беради. Бориб кассирдан 500 сўмни санаб олади, иши битиб, тўйи жаранглаб ўтади. Шунда менинг кулогимга:

– Қойил, буғолтири министрдан зўр экан, – деганлари эсимда.



## KASB FIDOVISI

## «ХОНБАНИ» – JINOYATDAN XOLI HUDUD

II guruh nogironi Muhabbat Sinniyeva shovqin solayotgan o'smir-larni ogohlantirayotgan mayorni ko'rib, unga yaqinlashdi va qo'lini duoga ochdi. Minnatdorlik bildirmasini, bir og'iz iltimosi bilan xonadoni eshigini o'rnatib, qulfini yangilab berdi.



## PATRUL SHAHAR KEZADI

## UMUMMULKKA XIYONAT

**Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX PPX batalyoni xodimlari – safdarlar B.Masharipov, O.Jolishev, A.Adamovlardan iborat avtopatrol guruhi Nukus shahri bo'ylab tungi xizmatni olib borayotgan edi. Ular shahar markazidan oqib o'tadigan «Do'stlik» kanali yonidan o'tib ketayotganida bir fuqaro ikkita og'ir sumkani ko'tarib kelayotgani ustidan chiqishdi. Bu xodimlarda shubha uyg'otdi va uni to'xtatib, tekshirib ko'rishga qaror qilishdi.**



Kutilmaganda oldida xodimlarning paydo bo'lganidan dovdirab qolgan fuqaro qo'lidagi sumkalarni shosha-pisha yerga qo'ydi. Tekshiruv davomida fuqaro kanal bo'yiga o'rnatilgan to'siqning bezak uchun o'rnatilgan dumaloq shakldagi 12 dona temir bo'lagini yechib olib ketayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, surishtiruv ishlari davomida uning uyidan yana shunday temir bo'laklari topildi.

Huquqbuzarning aytishicha, farzandi kasal bo'lib qolgani bois,

dori olish uchun ilojsiz bu ishga qo'l urgan ekan. Lekin bu aytigel vaj uning jazodan qutulishiga asos bo'la olmadi. Sababi, shahar ko'runga ko'rak qo'shib turgan bu to'siqlar shaharliklarning umummulkii hisoblanib, uning xatti-harakati o'g'rilikdan boshqa narsa emasdi. Shu bois holat tegishli tartibda rasmiylashtirilib, huquqbuzar fuqaro Nukus shahar IIOFMB 4-sonli II Bga topshirildi.

**Azamat PIRNIYAZOV,  
o'z muxbirimiz.**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

Forish tumani IIB JXX HPG profilaktika katta inspektori, mayor Oybek Urishov zimmasidagi vazifalarni qoyilmaqom tarzda uddalashi bilan xonbandiliklarning hurmatini qozongan. Chunonchi, joriy yilning o'tgan davrida mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriyatiga 32 ta xulosa kiritdi. Ularda huquqbuzarlik va jinoyat sodir qilish ehtimoli bo'lgan, muqaddam sudlangan, profilaktik hisobda turgan shaxslar bandligini ta'minlash, ularga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatish masalalari ifodalangan. Bundan tashqari, ko'p qavatli uylardagi kuzatuv kameralarini ta'mirlash, yana 4 ta zamonaliv kuzatuv qurilmasi o'rnatish yuzasidan hokimlikka loyiha taqdim etdi.

Shuningdek, huquqbuzarlik sodir qilgan 38 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomalarini

miylashtirib, 7 nafar kishini hush-yorxonaga joylashtirdi. Ikki nafar xotin-qizga himoya orderi berdi. Bir nafar shaxs ustidan ma'muriy nazarat o'rnatib, 8 nafarini profilaktik hisobga qo'ydi.

Mayor Oybek Urishov aholi o'rtasida, o'quv muassasalari va mahalla ijtimoiy tarmog'ida qonunbuzarliklarning oldini olish nuqtayi nazaridan targ'ibot tadbirlarini tashkil etishni ham kanda qilmaydi. Shu kabi profilaktik tadbirlar nati-jasida 2023-yilda va joriy yilning o'tgan davrida 4 ming 309 kishi istiqomat qiladigan «Xonbandi» mahallasida birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

**Alijon ABDUSATTOROV,  
o'z muxbirimiz.**  
*Jizzax viloyati.*


### «БАҲОРИЙ АЙЁМ» ЧАЙНВОРДИ

1. Кўкламнинг илк гули.
2. Ниҳол.
3. Куннинг мусафро пайти.
4. Чечак.
5. Тинчлик ва осойишталик рамзи, парранда.
6. Гул ёки баргнинг илк кўриниши.
7. Оммага намойиш қилиш, кўрсатиш.
8. Ўт-ўлан.
9. Баланд ўсувчи дараҳт.
10. Оммалашган миллий спортимиз.
11. Қўёш чиқиши олдидан уфқда ҳосил бўладиган манзара.
12. Баҳор элчиси.
13. Эртапишар узум нави.
14. Наврӯз таоми кўкати.
15. Адирлик маскан.
16. Қизил тусли гул.
17. Қўёш нури, тафти.

**КРИПТОГРАММА**

- Калит сўзлар:**
1. Умар Хайёмнинг кўклам айёмига бағишланган асари – 1, 2, 5, 7, 8, 3, 1, 11, 9, 2.
  2. Эртапишар мева – 14, 4, 6, 11, 17.
  3. Олам, борлиқ – 19, 15, 1, 13.
  4. Оммавий байрам томошалари – 17, 2, 12, 4, 6.
  5. Баҳорга хос мусафро томчи – 20, 2, 10, 1, 2, 9.
  6. Узум тупи – 18, 11, 16.

Энди калит сўзлари жавоблари орқали шаклнинг ўрта қисмидаги рақамларда яширинган криптограммани ҳал этиш билан табрик сўзларимизни билиб олининг.



Фозилжон ОРИПОВ.

 PROFILAKTIKA INSPEKTORI KUNDALIGIDAN

## O'G'IRLANGAN SIGIR – BIZNING BUZOG'IMIZ



Ichki ishlar organlarida 2016-yildan buyon xizmat qilib kelaman. Endigina xizmat faoliyatini boshlagan kezlar edi. Tongga yaqin tungi navbatchilar guruhi faoliyati bilan tanishib qaytayotsam, ro'paramdan sigir yetaklagan notanish yigit chiqib qoldi. Qarasam, sigir bizning sovliqqa o'xshadi. Yigitni zimdan kuzatishim asnosida, o'zini tutishi negadir shubhali ekanligini payqadim. Undan sigirni qayerdan olib kelayotganini so'ravim. Yigit kutilmagan savoldan biroz kalovlanib turdi-da, «Sigir o'zimniki, bozorga sotgani olib ket-yapman», dedi.

Sigirni ichki ishlar organlari tayanch punkti ro'parasidagi daraxtga bog'lab, yigitni mahalla posboni hamrohligida uya olib keldim. Ammo sigirimiz molxonada bog'log'liq turardi. Buni ko'rgan gumon qilinuvchi ancha xotirjam tortdi va «Behuda shuhalanyapsiz», deb yozg'irdi. Shu payt tong saharda molxonadan chiqib kelayotganimizni ko'rgan onam xavotirlangancha «Tinchlikmi?» deb so'radi. Men hozirgina sodir bo'igan voqeani gapirib berdim. Shunda onam bundan ikki yil avval sigirimizning buzog'ini qo'shnimiz Murodboy aka sotib olganini aytidi. Shoshilgancha qo'shnimiznikiga o'tdik.

Endigina uyqudan uyg'ongan Murodboy aka bilan hol-ahvol so'rashgach, sigirini so'ravim. U bo'lsa, kecha molxonada bog'liq turgandi, deya javob berdi. Birgalikda borib qarasak, sigir joyida yo'q. Murodboy aka qoziqda qirqlib qolgan arqonni qo'liga olgancha hang-u mang bo'lib qoldi.

Darhol tayanch punktiga yetib keldik. Daraxtga bog'lanib turgan sigirni ko'rgan Murodboy akaning yuziga qon yugurdi. «Bizniki, topganim halol ekan», dedi quvonganidan bizga minnatdorlik bildirib. Yoni-mizda mulzam bo'iganicha bosh egib turgan gumon qilinuvchi birdan qochishga urindi. Ammo biz bunga yo'il qo'ymadik.

Shu kuni holatni guvohlar ishtirokida hujjatlashtir-dim. Ko'p o'tmay tergov jarayonlari ham bo'lib o'tdi va muqaddam sudlangan qo'shni qishloqlik Davron qilmishiga yarasha jinoiy javobgarlikka tortildi.

Xullas, o'g'irlangan sigir qo'shnimizga sotgan buzog'imiz bo'lib chiqdi.

**Shixnazar VAISOV,  
Bog'ot tumani IIB HPB 439-huquq-tartibot  
maskani profilaktika katta inspektori, kapitan.**

Xorazm viloyati.

## ALDANGANLIGINI ANGLAGACH...



## «TEMIR TULPOR» SHAYDOLARI

Tungi soat taxminan 3:00 lar chamasi. Poytaxtimizning Yangihayot tumani IIOFMB Navbatchilik qismi xodimlari qo'ng'iroqlarga birin-ketin javob berishmoqda.

– Navbatchi eshitadi.

Yig'lamsiragan ayol:

– «Mening uyimga bir kimsa bostirib kirib, videokuzatuv moslamasini sindirib, tilla taqinchoqlarim va 10 million so'm pullarimni olib qochib ketdi. Unga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'iganimda, menga tan jarohati yetkazdi».

Navbatchi ayolning ism-sharifi va manzilini yozib oldi. Tergov-tezkor guruhi aytildan manzilga yetib borib, N.Sh. ismli ayolga nisbatan sodir etilgan bosqinchilik jinoyatini fosh etish maqsadida voqeja joyi hamda una tutash bo'igan huddulardagi kamerasi yozuvlarini o'r-gandi. Gumon qilinayotgan noma'lum shaxsning voqeja joyiga kelgan vaqt, kelish va ketish yo'naliishlari videotasmalarda qayd etilganligi aniqlandi.

Tuman IIOFMB JQB xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirdi davomida ushbu jinoyatni sodir etgan kimsa qo'lgan olinadi. U Toshkent viloyatilik, vaqtincha Sergeli tumanida istiqomat qila-yotgan U.E. ekanligi ma'lum bo'ldi. Gumon qilinuvchidan jabrlanuvchiga tegishli pullarning bir qismi va tilla taqinchoqlar ashyoviy dalil sifatida olindi.

Subhidam, soat 04:06 da Yangihayot tumani 5-A mavzesida yashovchi ayol R.J. tuman IIOFMB Navbatchilik qismiga

qo'ng'iroq qilib, o'ziga tegishli bo'igan oq rangli «Nexia-3» rusumli avtoulovini kimdir olib qochganligini aytadi. Mazkur holat yuzasidan Toshkent shahar IIBB Navbatchilik qismi tomonidan poytaxt miqyosida «to'sib ushslash» tadbiri amalga oshirilib, ushbu jinoyat sodir etilgan hududdagi videokuzatuv moslamalari yozuvlari o'rganiladi.

Aniqlanishicha, noma'lum shaxslar avtouloving yon oynasini sindirib, uni olib qochib, tumanning «Yangi Darxon» MFY yo'nalihsidan o'tuvchi THAY tomonga qarab harakatlangan.

Tezkor qidiruv tadbirdi natijasida, ushbu jinoyatni sodir etgan fuqaro, Sirdarmyo viloyatida tug'ilgan N.Y. qo'lgan olinadi.

U bilan suhbat davomida Chilonzor tumani dagi avtotransport vositalarini yuvish shoxobchasida ishlashini ma'lum qildi. U yerda U.J. ismli yigit bilan tanishib qoladi. U.J. unga «Spark» rusumli avtomashinani ijaraga olib, 1000 AQSH dollari qarz bo'lib qolganligini aytadi. Keyin ushbu qarzni yopish uchun avtomashina olib qochish rejasani bayon qiladi. Sotilgan mashinadan qolgan foydadan N.Y.ga 1000 AQSH dollari berishini bildirganida, u bunga rozi bo'ladi.

Tez orada U.J. Surxondaryo viloyati Denov shahrida qo'lgan olinadi. U «Nexia-3»ni tanishi V.L. ga olib borib bergan ekan. V.L. esa «temir tulpor»ni arzon narxda boshqa bir kimsaga sotib yuborgan. Olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirdi natijasida «Nexia-3» topilib, egasiga qaytarildi.

**Abdug'affor RASULOV,  
podpolkovnik.**

Toshkent shahri.

Noma'lum shaxs Jizzax viloyati Zarbdor tumanining Navoiy nomli mahallasida yashovchi F.S. ga ijtimoiy tarmoq orqali bog'lanib, unga jo'natma tarzida qimmat-baho buyumlar hamda 150 ming AQSH dollari yuborilganligini bildirgan. Mazkur boylikning yetkazib berilishi uchun haq talab qilgan. Yolg'onga uchgan F.S. noma'lum shaxsning bank plastik kartasiga 3 ming 900 AQSH dollari o'tkazib bergen.

Oradan ko'p o'tmay aldanganligini angaganan jabrlanuvchi ichki ishlar organlariga murojaat qildi. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, olib borilgan tezkor qidiruv tadbirdi natijasida ushbu qonun-buzarlikni Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi A.S. sodir etgani aniqlandi. Ayb-ulanuvchidan 8 million 800 ming so'm pul, 2 dona uyali, 1 dona radioaloqa vositasi hujjatlashtirib olingan.

**Alijon ABDUSATTOROV,  
o'z muxbirimiz.**

Jizzax viloyati.





## SUVCHECHAKNING «DUSHMANI» – KUCHLI IMMUNTIZIM

Bahor fasli boshlanishi bilan yuqumli kasalliklar orasida suvchechak ham uchrab turadi. Bu xastalik butun tana bo‘ylab qizil toshmalar va donachalar paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Odatda inson hayoti davomida bu kasallik bilan bir marta kasallanadi.



Infeksiya toshma va boshqa alomatlar boshlanishidan taxminan 7–21 kun oldin organizmga tu-shadi. Odam teriga toshma toshishi boshlanguniga qadar 48 soatgacha boshqalarga kasallik yuqtiruvchi hisoblanadi. Bemorda bu alomat ku-zatilganidan bir yoki ikki kun o‘tgach, toshma rivojlanishi boshlanadi.

Odam sog‘ayishdan oldin kasallikning quyidagi uch bosqichidan o‘tadi:

- qizil va pushti donachalar butun tanada rivojlanadi;
- donachalar suyuqlik bilan to‘igan pufakchalarga aylanadi;
- pufakchalar qattiqlashib, yuzaki qobiq paydo bo‘ladi.

Tanadagi toshmalar bir vaqtning o‘zida yo‘qolmaydi. Virus faoliyati davomida doimiy ravishda yangi pufakchalar paydo bo‘laveradi. O‘z navbatida, pufakchalar qichishni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, chaqa (yara)



hosil bo‘lishidan oldin donachalar butunlay yo‘qolishi uchun 7–14 kun vaqt ketadi.

Suvchechakni keltirib chiqaradi-gan virus so‘lak, yo‘tal, aksa urish orqali, shuningdek, pufakchaldagi suyuqlikni ushlaganda yuqadi. Bундан tashqari, kasallik havo-tomchi yo‘li bilan ham tarqalishi mumkin.

Kasallik asosan 6 oylikdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’sir ko‘rsatadi. Bemor tuzalgandan so‘ng organizmda barqaror immunitet hosil bo‘ladi.

Suvchechak tashxisi qo‘yilgan bemorlar virus faoliygida kasallik belgilarni nazorat qilishlari kerak. Ota-onalarga bolalarini maktabga yubormaslik tavsya etiladi. Shuningdek, virus tarqalishining oldini olish uchun bolani to‘g’ri parvarish qilish

lozim bo‘ladi. Virus bilan zararlangan kattalarga ham uyda qolish tavsya etiladi.

Kasallikning oldini olish uchun, eng avvalo, immunitet tizimni mustahkamlash zarur. Immunitetni mustahkamlash maqsadida, birinchi navbatda, ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish, oqsil va vitamnlarga boy oziq-ovqat, sabzavot mahsulotlarini iste’mol qilish, xizmat xonalari va yotoqxonalar havosini tez-tez almashtirib turish, vaqt-vaqt bilan xonalarga isiriq tutatish maqsadga muvofiq. Shuningdek, profilaktik dezinfeksiya tadbirleri sifatli o‘tkazilishini tashkil etish ham joizdir.

**Rustam DAMINOV,**  
**Qashqadaryo viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi SENM boshlig‘i,**  
**mayor.**

## ВЕСЕННИЕ ЛАЙФХАКИ ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ



1. Сбалансированное питание с достаточным количеством овощей и продуктов, богатых витаминами.
2. Занятия спортом. Каждый день небольшая разминка или зарядка.
3. Соблюдение режима работы и отдыха. Не переутомляться, давать организму перерывы.
4. Ежедневные прогулки на свежем воздухе.
5. Прием витаминов, но после анализов и консультации с врачом. Избыток витаминов также опасен для организма, как и недостаток. Поэтому важно соблюдать меру.



## ПОЛЬЗА РЕДЬКИ

Редька, как и любой другой корнеплод, очень полезна для сбалансированного питания.



Она обладает противомикробными свойствами и стимулирует образование желчи. В редьке содержатся ароматические эфирные масла, которые помогают в борьбе против атеросклероза. В ней содержится большое количество клетчатки, более 90% воды и много различных аминокислот.

Благодаря своему уникальному составу и пользе, которую она приносит организму, редька чрезвычайно полезна для употребления зимой и весной, когда организм испытывает недостаток витаминов.

Кроме того, она помогает бороться с микробами и повышает иммунитет. Несмотря на более чем специфический вкус, она чрезвычайно полезна для организма и хорошо подходит для стимуляции аппетита.



## ■ Кашкадарьинская область



**В Кашкадарьинской области в рамках общенационального проекта «Яшил макон» ведется масштабная работа. В ней активно участвуют службы и подразделения УВД области, сотрудники районных и городских отделов.**



В частности, на 12 гектарах сада в поселке Ханабад Каршинского района высажены 5 700 саженцев яблонь и черешни. Сотрудники также благоустроили сад, прорыли арыки, обра-

ботали землю, внесли в почву минеральные удобрения.

На территории махалли Наво города Карши сотрудники органов внутренних дел также выса-

дили тысячу саженцев плодовых и декоративных деревьев.

Кроме того, усилиями руководства 3-го сектора, рабочей группы, с участием личного состава управления и служб вокруг административных зданий городских и районных отделов высажены более пяти тысяч фруктовых и декоративных сортов деревьев. Чтобы обеспечить рост и развитие зеленых насаждений за ними закреплены ответственные лица.

Свой вклад в это благородное дело внесли также ветераны. Мероприятия по озеленению продолжаются.

**Соб. корр.**



## MUNAJJIMLAR BASHORATI (1-apreldan 7-aprelgacha)



**Qo'y.** Haftaning ilk kunlari ishda samaradorlik kutilmoqda, ayni shu davrda hatto bajarilishi eng qiyin bo'lgan vazifalarni ham hech ikkilanmay amalga oshirish tavsiya etiladi. Haftaning ikkinchi yarmi yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish, sarmoya kiritish va yirik xaridlar qilish uchun qulaydir.



**Buzoq.** Bu kunlarda beparvolik tufayli xatoga yo'l qo'yishingiz, atrofdagilar bilan ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi, ish samaradorligi pasayishi mumkin. Har qanday janjal va tortishuvlardan uzoq turib, imkon qadar rahbariyat va hamkasblar bilan murosa qilishga harakat qiling.



**Egizaklar.** Bu davrda sizga nimadir yetishmayotgandek bo'ladi. Bu holat chorshanbadan so'ng o'tib ketadi va siz o'zgacha ruhiy yuksalishni his etasiz, o'z maqsadlaringizni aniq belgilab, ushbu yo'nalihsda jadal harakatga tushasiz. Dam olish kunlari foydali xaridlarni amalga oshirishingiz mumkin.



**Qisqichbaqa.** Zukko va gapga ustaligingiz ko'p insonlarning e'tiborini jalb qiladi. Hafta o'rtasida his-tuyg'ular jo'shishi, bahs va kichik kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Hordiq kunlari uy-xo'jalik yumushlari bilan shug'ullaning, chunki qaysi ishga qo'l urmang, u oson va yengil bitadi.



**Arslon.** Ishga kechikmaslikka, biron vazifani bajarishda xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling. Payshanba va juma kuni tashkil etilgan do'stlar bilan uchrashuv ruhiy holatingizni yaxshilab, ko'ngilsizliklarni unutishga yordam beradi.



**Parizod.** Dushanbadan chorshanbagacha xizmatda yuksalishga yoki biznesni rivojlantirishga qaratilgan aniq ishlarni belgilab oling. Hamkasblar va ish hamkorlari bilan bahs-munozaraga bormang. Dam olish kunlari qiziqarli insonlar tanishuvni va'da qilmoqda.



**Tarozi.** Anchadan beri umid bog'lagan va ro'yobini kutgan niyattingiz amalga oshadi. Rejadagi barcha ishlarni oson va yengil hal bo'lib, hamkasblar bilan o'zaro munosabatlar mustahkamlanadi. Dam olish kunlari oila a'zolaringiz bilan tabiat qo'ynida sayr qiling.



**Chayon.** Moliyaviy mablag' sarflarini yaqinlaringiz bilan obdan maslahat qilgan holda amalga oshiring. Sokinlik va xotirjamlik zarurati tuysangiz bu hafta vaqtincha ishni va oilaviy tashvishlarni bir chetga surib, o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlaringiz uchun vaqt ajrating.



**O'qotar.** Bu davrda salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, arzimas narsalarga asabiyashmang. Sizga bosim o'tkazayotgan kishilar bilan munosabatlarni cheklashga harakat qiling. Payshanba kuni yaxshi xabar olasiz.



**Tog' echkisi.** Ushbu hafta sizdan katta mas'uliyat talab etadi. Ammo bir necha ishni birvarakayiga bajarishga urinmang. Barchasini reja bilan, avvalo, eng muhimlaridan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq. Juma kuni sizni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib etishi mumkin.



**Qovg'a.** Taxminan hafta o'rtalarida ish va oilada muayyan muvaffaqiyatlar kuzatilishi kutilmoqda. Yaqinlaringiz bilan muloqot qilishda xushmuomalalikni unutmang, aks holda kutilmagan noo'rin tortishuvlar kelib chiqadi. Salbiy hissiyotlar salomatlikka aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.



**Baliq.** Dastlabki uch kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haftaning ikkinchi yarmida kayfiyattingiz ko'tarilib, qo'l urgan ishlaringiz oson va yengil hal bo'la boshlaydi. Dam olish kunlarini oilangiz davrasida o'tkazing yoki yoshi ulug'larni yo'qlab boring.

# ИЛК ИЖРОДАГИ ДАРД

Санъаткор куй-қўшиқларига оҳангумоласини юрган йўларидан излайди. Гўёки, тоғлар, қируадирлар, дарёлар унга энг яқин сирдош. Зиёд Эшонхўжаевнинг қўшиқларида Ватанга муҳаббат, ёшлик ва унинг беғубор тўйғулари акс этади. Шу боис ҳам бу тароналар халқимиз қалбидан чуқур жой эгаллаган. Ижодкорнинг «Бу оқшом» қўшиғи ана шундай ўлмас мусиқий асарлардан биридир.



Хонанда бу таронанинг яратилиш тарихини шундай хотирлайди:

– Ўшанда 1977 йил эди. Ҳарбий хизматдан қайтган кезларим. Бу қўшиқнинг дунёга келишига сабабчи бўлган инсон – акам Шарофиддин Эшонхўжаев бўлади. У Ирригация институтида бадиий раҳбар бўлиб ишларди. Бир куни хонасига кирсан, алланима қоралаб ўтирибди. Билсам, янги шеърга илҳом келган экан. Шеърнинг қоралама сатрларига кўзим тушган заҳотиёқ, куйи хаёлимга келди. Гитарани олдим-у, шеърни куйга солдим. Шеър ихчам, чиройли ва оддий ёзилганлиги билан эътиборимни тортганди. Шу зайл, «Бу оқшом» қўшиғи ўша ернинг ўзида ярим дақиқада туғилди. Кейин гапнинг дангалига кўчиб, агар рухсат берсангиз, шу қўшиқни талабалар фестивалига тайёрламоқчиман, акуаканинг ҳамкорликдаги ижоди бўлар-

ди, дедим. Фестивалга Ўзбекистон телевидениесининг мусиқа бўлимидан вакиллар ҳам ташриф буоришган экан. «Тошкент тароналари» номли кўрсатув бўларди. Мусиқа бўлими мутахассислари шу кўрсатув учун Ботир Зокировнинг «Араб тангоси», Наргиз Бойхонованинг «Сен бўлмасанг ёнимда» қўшиқлари қаторида, «Бу оқшом»ни ҳам учликка танлашганини маълум қилишибди.

Шунингдек, фестиваль қўшиқка клип олишимизга ҳам сабабчи бўлди. 47 йил аввал «Анҳор» лабидаги мажнунтол ёнида «Бу оқшом»нинг клипини олганмиз. Бу қўшиқда менинг энг гуллаган ёшлик чоғларим мухрланган. Такдирни қарангки, қўшиғимни студияда ёзилиш куни отамни йўқотган кунимга тўғри келган... Бошқа кунга қолдиролмасдик. Чунки Германиядан келган мусиқа бўйича мутахассислар

билан буни аввалидан режалаштирган эдик ва улар ўз юргига тезда жўнаб кетишлини керак эди. Студияга онамнинг қистовлари билан мажбур бордим. Қўшиқнинг ilk ижросидаги дард бир келди-ю, бир умрга тасмада қолди. Кейин бошқа ҳеч қачон ўша дард билан куйлолмадим...

Ииллар карвони ўтиб бораркан, дилга яқин ушбу тарона бир қатор хонандалар томонидан ижро этилди. Хусусан, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артистлар – «Хўжа» гуруҳининг хонандаси Иззат Ибрагимов, Севара Назархон, Милена Мадмусаеванинг талқини ҳам ихлосмандларга манзур бўлди. Аммо халқимиз бу қўшиқнинг том маънодаги ижрочиси дея Зиёд Эшонхўжаевни эътироф этади.



## БУ ОҚШОМ

*Бу оқшом, кечалар, тонггача,  
Кезайлик боғ аро иккимиз.  
Булбуллар сайраган бу боғда  
Тонггача янграсин кулгимиз.  
Ошиқлар гул тутар, ёрига, жононига,  
Лол қолиб бекиёс, васлига, ҳуснига...  
Гўзалим, севгилим сен ўзинг!  
Кўнглимда оташин сен ўзинг!  
Келмасанг муҳаббат сайлига,  
Кўздаги ёшим сенсан!  
Ошиқлар гул тутар, ёрига, жононига,  
Лол қолиб бекиёс, васлига, ҳуснига...*

Гулноза ТУРГУНБОЕВА  
тайёрлади.



## ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ

Қарши шаҳрида «Яшил чироқ – 2024» мусобақасининг мактаб босқичи бўлиб ўтди. Унда шаҳардаги мактабларнинг 11–14 ёшли ўқувчилари иштирок этди.

Вилоят ИИБ ЖХХ ЙХҲБ масъул ходими иштирокида баҳолаб борилган мусобақада ўқувчиларнинг йўл ҳаракати қоидалари, жумладан, пиёдаларнинг вазифалари, шунингдек, йўл белгилари ҳамда биринчи тиббий ёрдам кўрсатишга оид билимлари синовдан ўтказилди.

Ўз мухбиришим.

MUASSIS:

О'zbekiston Respublikasi  
Ichki Ishlar vazirligi

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarları –  
mayor Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –  
Gulnoza TURG'UNBOYEVA  
Sherzod ABDUSAMADOV

Sahifalovchilar –  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

## TELEFONLAR:

71-231-33-88;  
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)  
E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>st</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №1026.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:  
Yakka taribda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqt – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)